




**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI**

**FARG'ONA VILOYATI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA  
TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

**MASOFADAN O`QITISHNI HUDUDIIY  
MUVOFIQLASHTIRISH MARKAZI**

**“O`qitishning zamonaviy usullari” fani  
bo`yicha o`quv materiallari**



**Farg`ona-2010**



## MASOFAVIY TA'LIM

### ▪ O'quvchining ta'lim muassasasi va o'qituvchidan ma'lum masofada turib mustaqil o'qish jarayoni

- Talaba va o'qituvchi orasida masofa va vaqt deganda nima tushuniladi
  - Buning ma'nosi nima (Bu nima degani)?
    - Geografik jihatdan uzoqligi
    - nosinxronlik: bir-biri bilan har xil, har birining o'ziga qulay bo'lgan vaqtda muloqot qila oladilar.

Ya'ni o'qituvchidan fazo va (yoki) vaqt nuqtai nazaridan masofa bilan ajralgan, ammo shu bilan birga ixtiyoriy ravishda telekommunikatsiya vositalari yordamida muloqot qilish imkoniyatlariga ega bo'ladilar.

Muloqot on-line hamda off-line tarzida amalga oshirilishi mumkin Bu nima degani va ularning orasida nima farq bor?

▪ on-line sinxron ravishda - telekonferenstaloqa, video konferenstiya (qimmatbaoho), telefon orqali hozirgi vaqtning o'zida muloqot qila olish. Sinxron usuli o'qituvchi va talabalarning bir vaqtning o'zida qatnashib, muloqotning shu vaqtning ichida olib borilishini taqozo etadi. Bu usulda ma'lumot eltish vositalari, ya'ni interaktiv televidenie va videokonferenstiyadan foydalaniladi.

▪ off- line nosinxron – elektron pochta. Nosinxron usullar, sinxron usulidan farqli o'laroq, moslashuvchanlik bilan ajralib turadi xamda talabalarga kurs materialini o'zlashtirish uchun o'zlari uchun qulay bo'lgan vaqtni tanlash imkonini beradi. Nosinxron muloqot usullaridan foydalanuvchi dasturlar internet, elektron pochta, videokasetalar va oddiy pochta vositalaridan foydalanishni taqozo etadi.

▪ Masofaviy ta'lim – mutlaqo yangi narsa emas – sirtqi ta'lim hamda televizion o'quv dasturlari ilgaridan mavjud bo'lgan.

Masofaviy ta'lim azaldan mavjud bo'lib kelgan. Axborot texnologiyalari va internet tarmoqlari rivojlanishidan ilgarigi davrda u asosan sirtqi ta'lim ko'rinishida oliy o'quv yurtlarida tarkib topgan. Bunda talabalarga o'quv materiallarni eltib berish uchun oddiy pochta xizmatidan foydalanilgan.

▪ Zamonaviy MT axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan:

○ Ikki omil masofaviy ta'limni o'zgartirib, uni dunyoda haqiqiy samarali vositaga aylantirdilar:

▪ Personal kompyuterlarning keng tarqalishi

▪ Internet tarmog'ining rivojlanishi


○ Kompyuter texnologiyalarini masofaviy ta'limda qo'llash quyidagi imkoniyatlarni yaratdi:

▪ O'quv jarayonida Rich-media vositalarini (video, audio, animatsiya, foydalanuvchi bilan muloqot) qo'llash

▪ Testlash va natijalarni tahlil qilishning qo'shimcha imkoniyatlari

▪ O'quv jarayonini nazorat qilish

- O'qituvchi bilan on-line hamda off-line tarzda muloqot qilish



1. O'qitish jarayoni talabning mustaqil bilim olish faoliyatiga qurilgan Talabning mustaqil o'rganish tamoyili Talabning mustaqil ishi

2. Talabning bilim olish (o'rganish) faoliyati aktiv tarzda, ya'ni faol tarzda bo'lishi kerak

3. Faol ishtirok ichki ishtiyoq (yoki motivastiya), ya'ni o'qishga bo'lgan intilishi bilan aniqlanadi. Talabning yuqori darajadagi ishtiyoqi (yoki motivastiyasi).

4. Masofaviy ta'lim shaxsga yo'naltirilgan bo'lishi shart. Ushbu tamoyil masofaviy ta'limning individuallik ko'rinishini belgilaydi. "Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish" tushunchasi o'qitishni differentsiallangan (ajralgan holda) hamda individuallashtirilgan, ya'ni o'quvchining psixologik-pedagogik xususiyatlariga mos ravishda, har kimning o'ziga moslashtirilgan holda olib borishni taqozo qiladi.

5. O'quv jarayonida talaba rolining muhimligi;

6. Talabani qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish; Tyutorlik

7. O'qituvchining yangicha roli: qo'shimcha vazifalar yuklanadi:

a. O'quv jarayoning muvofiqlashtirish,

b. O'qitilayotgan fanni korrektirovka qilish,

c. Individual (shaxsiy) o'quv rejasini tuzishda maslahat berish va hokazo.

8. O'quv yoki resurs materiallari yanada sinchkovlik bilan ishlab chiqilishi kerak – o'quv materiallarining sifatiga talabning ortishi;

9. Modullik: Masofaviy ta'limda o'quvchilarga o'quv materiallari modul ko'rinishida taqdim etiladi, ushbu modul kunduzgi ta'limda qo'llaniladigan chop etilgan darslikning analog turi ko'rinishida bo'ladi. Bu usul bir necha ajralgan modul-kurslardan shaxsning individual yoki bir guruhning talablariga muvofiq yaxlit o'quv dasturini shakllantirishga imkon beradi.

10. Interfaollik. (Bu nima degani? Vopros auditorii) Ma'lumotni ikki tomonlama almashinuvi, MT tizimi bilan ikki yoqlama muloqot, talabalarni o'zaro muloqoti/MT jarayonida talabalar o'rtasida o'zaro ma'lumot almashinuvi jadalligi talaba va o'qituvchining orasida ma'lumot almashinuidan ko'ra yuqoriroq, shuning uchun o'quv jarayoning barcha ishtirokchilariga elektron manzillarini ma'lum qilish lozimdir.

O'quvchilarda boshlang'ich-asosiy bilim va ko'nikmalarni mavjud bo'lishinig zarurligi, ya'ni dastlabki tayyorgarlik bo'lishi zarur.

Kompyuterdan foydalana olishi

Internetdan foydalana olishi

Mustaqil o'qish ko'nikmasiga ega bo'lishi

CD-ROM yoki veb-sahifalarda joylashtirilgan o'quv materiallarini mustaqil o'zlashtira olishi;

O'z vaqtini tashkillashtirishni bilishi;

Buning uchun kirish nazoratini o'tkazish mumkin.

Texnikaviy ta'minoti – kompyuter va Internet

## KEYS TEXNOLOGIYA VA INTERNET TARMOQLI TEXNOLOGIYA

**Keys texnologiya:** o'quvchilar o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlanadilar va mustaqil ravishda o'zlari tayyorlanadilar.

O'quvchilarni maxsus O'quv-metodik kompleks (yoki keys) ko'rinishidagi axborot o'qitish resurslari bilan ta'minlash, va bular yordamida ular turli axborot tashuvchi vositalar (elektron yoki chop etilgan) qo'llab mustaqil o'qishi.

Materiallarni o'quvchilarga berish barcha foydalanish mumkin bo'lgan usullar bilan amalga oshiriladi; telekommunikatsiya vositalari o'quvchilar bilan o'qituvchini muloqotini ta'minlash uchun, hamda ularga qo'shimcha axborot resurslarini berish uchun qo'llaniladi.

Shuning uchun elektron pochta mavjud bo'lishi shart.

Seminarlar, konsultastiyalar

Kunduzgi ko'rinishdagi mashg'ulotlarni (konsultastiyalarni) tashkil qilishga muhim rol ajratiladi, bir guruh uchun hamda bir kishi uchun (individual), maxsus tayyorlangan o'qituvchi (tyutor) tomonidan o'tkaziladi.

Gurahdagi mashg'ulotlar, konsultastiyalar va yakuniy attestatsiya yoki imtihon kunduzgi mashg'ulotlarni o'tkazishga mo'ljallangan aydinatoriyada (sinfda) o'tkaziladi.

Odatda kirish seminari o'tkaziladi, kunduzgi konsultastiyadar, xaftasiga 1 yoki 2 marta, yakuniy seminar va testlarni tyutorlar tekshiradi.

O'quv-metodik kompleksning tarkibiga kamida quyidagilar kirishi kerak:

- O'quvchining semestr bo'yicha ishchi rejasi;
- Fanning ishchi dasturi (mazmuni, hajmi, o'rganish va o'qitish tartibi, kirish, konsultativ, nazorat va attestatsiya larni o'tkizish jadvali);
- Fanni o'rganish bo'yicha va turli mashg'ulot va attestatsiyaga tayyorlanish bo'yicha metodik ko'rsatmalar;

- Fan bo'yicha o'quv qo'llanma, metodik va didaktik ravishda MT uchun tayyorlangan;
- O'z-o'zini nazorat qilish va attestatsiya uchun didaktik materiallari (vazifalar, nazorat ishlari, testlar to'plami);
- Fan bo'yicha praktikum (laboratoriya ishi) yoki amaliy qo'llanma – agar fan o'quv rejasida amaliy mashg'ulotlar bo'lsa;
- Masofaviy ta'limni tashkil etish bo'yicha qo'llanma (o'quvchini mustqil ishini hisobga olgan holda).
- UMK tarkibiga qo'shimcha axborot resurslari kiritilishi mumkin: darsliklar, o'quv qo'llanmalari, ma'ruza matnlari, xrestomatiya va ma'lumotnomalar, lug'atlar va boshqa materiallar.

Keys-texnologiyada kompyuter va maxsus jihozlarga alohida talablar qo'yilmaydi. Shuningdek talabara o'quv materialini oladigan kommunikatsiya kanallariga ham maxsus talablar qo'yilmaydi.

Keys-texnologiya o'quvchilar internet resurslaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmaganda qo'llaniladi.

**Internet/tarmoqli texnologiyada** o'quvchilar internetda joylashgan o'quv materiallaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'qitish avtonom tarzda amalga oshiriladi. Vaqti-vaqti bilan o'quvchilar o'qituvchi bilan ma'lumot almashadi.

Internet texnologiyaning muhim qismi – bu avtomatlashtirilgan elektron xizmatning mavjudligidir, uning yordamida masofadan turib uzluksiz ravishda o'quv-metodik materiallarga ega bo'lish, o'quv jarayoni haqida joriy axborotni olish, o'qituvchi-maslahatchilar bilan (off- line) muloqot qilish imkoniyati va shu kabilardir. On-line ro'yxatga olish, o'qitish va test o'tkazish yo'lga qo'yiladi. O'qituvchi bilan vizual (ko'z orqali) muloqot bo'lmaydi.

Hamma o'quvchilar o'quv muassasasi tomonidan ta'minlab berilgan yoki o'zlarining multimedia vositalariga ega kompyuter hamda internetga kirish imkoniyatini beruvchi vositalarga ega bo'lishi kerak.

O'quv jarayonini amalga oshirish uchun o'quv muassasasi quyidagilarga ega bo'lishi shart:

- Ta'lim beruvchi Web-sayt yoki portal;
- Xosting xizmatini ta'minlaydigan internet-ta'minlovchi (provayder) . Provayder server jihozlarini tunu-kun ishlashini va asosiy axborot-ta'lim resurslariga kirish imkoniyatini ta'minlab berishi kerak.
- O'z (korporativ) telekommunikatsiya tarmoqlariga, uning yordamida foydalanuvchilarni ulanishi va axborot-ta'lim resurslaridan foydalanshi ta'minlanadi.
- Aloqa kanallarining a'lo o'tkazuvchanlik xususiyati;
- O'quvchilar bilan tezkor aloqa qilish uchun telefon kanallari bilan.

Internet-texnologiyani ishlatish internetga chiqish erkin bo'lgandagina maqsadga muvofiqdir.

Bu texnologiyalarni alohida va birgalikda samarali qo'llash qanday amalga oshiriladi?

## TOPSHIRIQ

Materiallar bilan tanishib chiqqaningizdan so'ng "Eng yaxshi masofadan o'qitish texnologiyasi" mavzusida qisqa bayon(esse) yozing (ko'pi bilan 1 bet).

O'z bayoningizda masofaviy ta'lim kursini rivojlantirishda eng yaxshi texnologiya qaysi bo'lishi mumkinligi haqidagi fikrlaringizni ifodalang. Kamida beshta dalil keltiring. (Bu topshiriqni bajarish 1 soatdan oshiq vaqtni olmasligi zarur)

## ESSELARDAN NAMUNALAR

### MASOFADAN O'QITISH TEXNOLOGIYALARI

Masofadan o'qitish texnologiyalari orasida shubhasiz **TARMOQLI O'QITISH VA KEYS TEXNOLOGIYASI** modeli o'qituvchilar malakasini oshirishida qo'llaniladigan eng qulay modelidir, mening fikrimcha.

Uning afzallik tomoni shunda-ki,

Mashg'ulotlarni **Telekonferensiya Chat Veb kvest** ko'rinishida o'tkazish imkoniyati mavjudligi.

Tinglovchi nafaqat yakka tartibda, balki **O'qituvchi bilan birgalikda** faoliyat olib borishi mumkin.

Shuning bilan birgalikda **Tinglovchilarning birgalikdagi faoliyat** yuritish imkoniyati bor.

**Metodlar, tavsiyalar, takliflar, Kompyuter dasturlari, Video va audio tasmalar** dan foydalanish imkoniyati mavjudligi.

**Internet axborot manbalari** dan keng foydalanish mumkin.

Aksariyat ta'lim muassasalarida Internetga ulanish imkoniyati mavjud, qolaversa ko'pchilik shaxsiy kompyuterlariga ega va ular global tarmoq orqali axborot almashina oladi.

**Nazorat Test sinovini** tinglovchi o'ziga qulay vaqtda topshira olish imkoniyatiga ega.

Masofali o'qitish tinglovchiga qanday va qachon o'rganish, materillarni o'zlariga moslashtirish, shaxsiy imkoniyatlariga nisbatan o'qish darajasini tanlash erkinligini beradi.

CD disklardagi qo'llanmalarni o'rganish qulay, zamonaviy kompyuterlar DVD-ROOM, CD-ROOM lar bilan jihozlangan.

Ta'lim-resurs markazlarida tinglovchilarning vaqti-vaqti bilan birgalikdagi seminar-treninglarini tashkil etish mumkin.

Eng muhimi, tinglovchi o'ziga qulay vaqtda, ya'ni ortiqcha vaqt va mablag' sarflamasdan o'z malakasini oshiradi. Bunda olinadigan bilimni tinglovchi o'zi tanlayda, ya'ni tinglovchi o'zi uchun zarur materiallarni izlab topadi, o'rganadi.

### **ENG YAXSHI MASOFAFIY O'QITISH TEXNOLOGIYASI (esse)**

XXI asr yangi informasion va kommunikasion texnologiyalar asri deb ataladi.

Komp'yuter texnologiyalaridan xalq xo'jaligining barcha sohalarida, jumladan, ta'lim tizimida ham qo'llanilishi natijasida, o'qitishning yana bir yangi shakli – masofafiy ta'lim tizimi paydo bo'ldi. Masofafiy o'qitishda ma'ruza mashg'ulotlari

Tyutor tomonidan berilgan o'quv materiallari asosida o'zlashtiriladi. Bunda mustaqil o'rganish, bilim olish va o'rganishga yetarli sharoitlar yaratiladi.

Agar talabada mavzuni o'zlashtirish jarayonida biror savol yoki muammoli vaziyat uchab tursa, bevosita Internet, elektron pochta aloqalariga tayangan holda Tyutor bilan bog'lanishi mumkin bo'ladi.

Amaliy mashulotlar ham to'plamlar ko'rinishida, bunda ma'ruza mashulotlaridan farqli talabalar o'z tyutorlari bilan on –line tarzida elektron pochta orqali bo'lganish imkoniga ega bo'ladi va berilgan topshiriqlar bo'yicha savol-javob olib borishlari, shuningdek chat orqali bevosita suhbat o'tkazishlari mumkin.

Tinglovchi kurslarni istalgan vaqtda o'qishi mumkin va ixtiyoriy ketma -ketlikda, tez yoki sekin o'rganishi mumkin.

Masofali o'qitish tinglovchiga qanday va qachon o'rganish, materillarni o'zlariga moslashtirish, shaxsiy imkoniyatlariga nisbatan o'qish darajasini tanlash erkinligini beradi.

Masofaviy ta'limda darsni tushunmaganlarga alohida tushuntirib utirilmaydi. Ixtiyoriy vaqtda elektron pochta yoki on - line tartibida o'qituvchi bilan bog'lanish mumkin va unga mavzuga oid savollar berishingiz mumkin.

Masofali o'qitish tinglovchilarga ko'proq yo'naltirilgan bo'lib maksimal qo'llash sharoit yaratadi ularni vaqt va fazoviy chegaralardan to'la ozod qiladi.. bajaradi.



## MAVZU: PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA TURLARI VA DARS MODULLARI

Ta'lim–tarbiya mazmuni, maqsad va vazifalari davrlar o'tishi bilan kengayib borishi natijasida uning shakl va usullari ham takomillashib bormoqda. Hozirda inson faoliyatining asosiy yo'nalishlari ulardan ko'zda tutilgan maqsadlarni to'liq amalga oshirish imkoniyatini beruvchi yaxlit tizimlar, ya'ni texnologiyalarga aylanib bormoqda. Xuddi shu kabi ta'lim-tarbiya sohasida ham so'nggi yillarda pedagogik texnologiya amal qila boshladi. Pedagogik texnologiya tushunchasi ta'lim-tarbiya amaliyotini rivojlantirish ehtiyojlari asosida kelib chiqqan, va hozirda pedagogika, psixologiya fanlarida o'z o'rniga ega bo'lgan keng ko'lamli serqirra tushunchadir. Pedagogik texnologiyada ishlab chiqarish sohalaridagi turli texnologiyalardan farqli ravishda ishlov beriladigan material o'quvchi (ta'lim oluvchi)ning aqliy, ruhiy, axloqiy sifatleri bo'lib, ularga o'qituvchi, tarbiyachi tamonidan ma'lum maqsadlarga erishish yo'lida har turli ta'sirlar o'tkaziladi. Pedagogik texnologiya tushunchasi dastlab XX asrning o'rtalarida AQSHda paydo bo'lib, 1940-50 yillar o'rtasigacha "Ta'lim texnologiyasi" deb yuritilib kelgan va bu ibora texnika vositalaridan foydalanib o'qitishga nisbatan qo'llanilgan. 50-60 yillarda programmalashtirilgan ta'lim nazarda tutilgan, 70- yillarda "pedagogik texnologiya" iborasi qo'llanilib u avvaldan loyihalashtirilgan va aniq belgilangan maqsadlarga erishishni kafolatlovchi o'quv jarayonini bildirgan. 1979 yilda AQSHning Pedagogik kommunikatsiyalar va texnologiyalar assotsiatsiyasi tomonidan Pedagogik texnologiyani kompleks, integrativ jarayon deb asoslangan va 80- yillarning boshidan esa pedagogik texnologiya deb ta'limning kompyuterli va axborot texnologiyalarini yaratishga aytilgan. Hozirda bu tushunchaga quyidagi turli ta'riflar berilgan:

**Texnologiya** – biror ishda, san'atda, mahoratda qo'llaniladigan usullar, yo'llar yig'indisi. (Izohli lug'at).

**Texnologiya** – ishlov berish, ahvolni o'zgartirish san'ati, mahorati, qobiliyati metodlar yig'indisi. (V.M.Shepel).

**Pedagogik texnologiya** – Bu o'qituvchi (tarbiyachi)ning o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida o'quvchi ( talaba)larga muayyan sharoit va ketma-ketlikda ta'sir ko'rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayondir. (N.Saydaxmedov ).

**Pedagogik texnologiya** – o'qitishning, ta'limning shakllari, metodlari, usullari, yo'llari, tarbiyaviy vositalarning maxsus yig'indisi va komponovkasi (joylashuvi)ni belgilovchi psixologik tartiblar (ustanovka)lar majmuasi; u pedagogik jarayonning tashkiliy-uslubiy vositalaridan iborat ( B.T.Lixachev).

**Pedagogik texnologiya** – texnika resursleri, odamlar va ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda ta'lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo'yuvchi o'qitish va bilimlarni o'zlashtirishning hamma jarayonlarini yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli metodi. (YUNESKO).

**Pedagogik texnologiya** – bu o'qitishga o'ziga xos yangicha (innovatsion) yondashuvdir. U pedagogikadagi ijtimoiy-muhandislik tafakkurining ifodalanishi,

texnokratik ilmiy ongning pedagogika sohasiga ko`chirilgan tasviri, ta`lim jarayonining muayyan standartlashuvi hisoblanadi.( B.L.Farberman)

Ushbu aytilganlar asosida pedagogik texnologiyaning quyidagi eng qisqa va umumlashtirilgan ta`rifini keltirishimiz mumkin:

**“Pedagogik texnologiya – barkamol insonni shakllantirish faoliyati”.**

Shu bilan birga pedagogik texnologiyaning keng ko`lamli, serqirra tushuncha ekanligini hisobga olgan holda uning quyidagi yana bir nechta ta`riflarini keltirishimiz mumkin.

**Pedagogik texnologiya** – axborotlarni o`zlashtirish, ulardan amalda foydalanish, ulardagi yangi ma`no-mazmunlarni hamda axborotlar orasidagi turli bog`liqliklarni ochish orqali yangi axborotlar yaratishga o`rgatish jarayonidan iborat.

**Pedagogik texnologiya** – bu o`z oldiga ta`lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo`yuvchi, butun o`qitish va bilimlarni o`zlashtirish jarayonini texnik resurslar va odamlarning o`zaro munosabatlarini hisobga olgan holda yaratish, qo`llash va aniqlashning tizimli metodidir.









### **Pedagogik texnologiya turlari**

Pedagogik texnologiyalar uzluksiz ta`lim turlari, ta`lim sohalari hamda ayrim belgilari bo`yicha turlarga ajratiladi

Uzluksiz ta`lim turlari bo`yicha maktabgacha ta`lim, boshlang`ich ta`lim, tayanch ta`lim, maktabdan tashqari-qo`shimcha ta`lim, o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi, oliy ta`lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish ta`limi pedagogik texnologiyalariga bo`linadi. Shu bilan birga, ta`lim sohalari bo`yicha ona tili, xorijiy tillar, adabiyot, ijtimoiy, tabiiy, aniq fanlar, san`at, sport, texnika, texnologiya, amaliy fanlar, kasb-hunarlar, maxsus ta`lim pedagogik texnologiyalari mavjud.










Hozirda mavjud bo`lgan pedagogik texnologiyalarni bir qancha belgilariga qarab turlarga ajratiladi. Bu belgilar haqida gapirishdan oldin shuni eslatib o`tishimiz kerakki, pedagogik texnologiya doimo kompleks xarakterga ega bo`lib, u faqat bittagina omildan, metoddan, tamoildan foydalanmaydi. Ya`ni quyida keltiriladigan turlarigagina xos bo`lgan monotexnologiyalar aslida mavjud emas. Lekin har bir pedagogik texnologiyada asosiy e`tibor ta`lim jarayonining u yoki bu tomoniga qaratilishi natijasida ularni shu belgilari bo`yicha turlarga ajratiladi.

#### **Bilish faoliyatini boshqarish bo`yicha pedagogik texnologiyalar turlari:**











-  Klassik ma`ruza;
-  Texnika vositalari yordamida o`qitish;
-  Maslahatchilik tizimi;
-  Darslik bo`yicha o`qitish;
-  Kichik guruhlar tizimi;
-  Kompyuter yordamida o`qitish
-  Repetitorlik tizimi;
-  Dasturlashtiriladigan boshqaruv.

**Ta`lim oluvchiga yondashuv turi bo`yicha pedagogik texnologiyalar quyidagicha nomlanadi:**












-  Avtoritar;

-  Didaktik yo`naltirilgan;
-  Ijtimoiy yo`naltirilgan;
-  Antropologik yo`naltirilgan;
-  Pedagogik yo`naltirilgan;
-  Shaxsga yo`naltirilgan;
-  Insonparvarlikka va shaxsga yo`naltirilgan;
-  Hamkorlik texnologiyalariga yo`naltirilgan;
-  Erkin tarbiyaga yo`naltirilgan;
-  Ezoterik ta`lim va tarbiyaga yo`naltirilgan.



**Qo`laniladigan asosiy metod bo`yicha pedagogik texnologiyalar quyidagi turlarga ajratiladi:**


-  Dogmatik, reproduktiv metod ;
-  Tushuntirish, ko`rgazmali;
-  Rivojlantiruvchi ta`lim;
-  Muammoli, izlanishli;
-  Ijodiy metod;
-  Dasturlashtirilgan ta`lim metodi ;
-  Dialogli metod;
-  O`yin metodi ;
-  O`z-o`zini rivojlantiruvchi ta`lim metodi;
-  Axborotli ( kompyuterli) ta`lim metodi


**Tashkiliy shakllariga ko`ra pedagogik texnologiyalar quyidagi turlarga bo`linadi:**

-  Hozirgi an`anaviy ta`lim;
-  Shaxsga yo`naltirilgan pedagogik jarayon asosidagi pedagogik texnologiyalar;
-  O`quvchilar faoliyatini faollashtirish va jadallashtirish asosidagi pedagogik texnologiyalar;
-  O`quv jarayonini boshqarish va tashkil qilish samaradorligi asosidagi pedagogik texnologiyalar;
-  Materialni didaktik takomillashtirish va rekonstruksiyalash asosidagi pedagogik texnologiyalar;
-  Xususiy fanlar pedagogik texnologiyalari;
-  Alternativ texnologiyalar;
-  Tabiatga moslashtirilgan texnologiyalar;
-  Rivojlantiruvchi ta`lim texnologiyalri;
-  Mualliflik maktablari pedagogik texnologiyalari;
-  Texnologiyalarni loyihalash va o`zlashtirish texnologiyalari.


**Bundan tashqari shaxsning xususiyat va sifatleri tarkibiga yo`naltirilganlik bo`yicha pedagogik texnologiyalar quyidagi turlarga ajratiladi:**

-  Fanlar bo`yicha bilim, ko`nikmalarni shakllantirishga yo`naltirilgan – axborot texnologiyalar;
-  Aqliy faoliyat usullarini shakllantirishga yo`naltirilgan –operatsion texnologiyalari;


 Estetik va axloqiy munosabatlar sohasini shakllantirishga yo`naltirilgan emotsional-badiiy va emotsional axloqiy texnologiyalar;

 Shaxsning o`z-o`zini rivojlantirish mexanizmlarini shakllantirishga yo`naltirilgan o`z-o`zini rivojlantirish texnologiyalari;

 Ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo`naltirilgan –evristik texnologiyalar;

 Amaliy faoliyat sohasini rivojlantirishga yo`naltirilgan amaliy texnologiyalar.


Pedagogik texnologiyalarni quyidagi belgilariga ko`ra tasnif qilinadi:


 Qo`llash darajasiga ko`ra;


 Falsafiy asosiga ko`ra;

 Asosiy rivojlantiruvchi omiliga bo`yicha;

 O`zlashtirish konsepsiyasi bo`yicha;

 Shaxsiy belgi-sifatlariga ko`ra yo`nalganligi bo`yicha;

 Mazmun xususiyatlari bo`yicha ;

 Boshqaruv turiga bo`yicha;

 Bolaga yondashuv bo`yicha;

 Ko`p qo`llanilgan metodlari bo`yicha;

 Ta'lim oluvchilar toifalari bo`yicha.

### **Pedagogik texnologiya bilan metodika orasidagi farq**

Hozirgi kunda pedagogik texnologiya haqidagi aniq tushuncha va tasavvurlar birmuncha kamligi tufayli, uni xususiy metodikalar bilan deyarli tenglashtirish hollari uchraydi. Aslida esa ular orasida jiddiy farqlar mavjud bo`lib, quyida ular haqida qisqacha bayon qilinadi.

**Pedagogik texnologiya** – o`quvchini mustaqil o`qishga, bilim olishga, fikrlashga o`rgatishni kafolatlaydigan jarayondir.

**Metodika** – o`qituvchining bilimi, ko`nikmasi mahorati, shaxsiy sifatlari, temperamentiga bog`liq bo`lib, ma'lum shaxs o`qituvchi uchun qulay bo`lgan o`qitish usullari va yo`llari majmuadir. U alohida metodikalarga ajratiladi. Pedagogika fani ma'lum o`quv fanlarini o`qitish qonuniyatlarini tadqiq qiladi. Masalan, tillar metodikasi, arifmetika metodikasi va shu kabilar.

Metodikaning pedagogik texnologiyadan farqini tushunish va amalda har ikkisidan unumli foydalana bilish talab etiladi. Ular orasidagi farqlar quyidagi jadvalda keltirilgan

	Asosiy tushunchalar	Pedagogik texnologiya	Metodika
1	Ta'riflar	Pedagogik texnologiya – insonga oldindan belgilangan maqsad bo`yicha ta'limiy va tarbiyaviy ta'sir o`tkazish	Metodika – ma'lum o`quv fanini o`qitish hamda tarbiyaviy ishlar qonuniyatlarini tadqiq qiladi

		faoliyatidan iborat	
2	Maqsad	Komil insonni shakllantish	Alohida o`quv fanlarini o`qitish va tarbiyaviy ishlarni sifatli bo`lishini ta'minlash
3	qo`llash miqiyosi	Barcha ta'lim-tarbiya jarayonida	Xususiy fanlarni o`qitishda hamda tarbiyaviy ishlarda
4	Vositalar	Barcha ta'limiy va tarbiyaviy vositalar xususiy metodikalar	Alohida o`quv fanlarini o`qitishda hamda tarbiyaviy ishlarda qo`llaniladigan vositalar
5	Pedagogik jarayon	Ta'lim-tarbiya texnologiyasi asosida, ta'lim menejmenti va marketing asosida, ta'lim-tarbiya sohasidagi ilg`or tajribalarni umumlashtiruvchi loyihalar asosida rivojlanib boradi.  Yetarli tayyorgarlikka ega mutaxassislar tomonidan qo`llanganda o`zaro o`xshash natijalar olinishi ta'minlanadi.	Ta'lim-tarbiya metodikasi asosida ijodkor o`qituvchilarning ilg`or tajribalariga tayanib rivojlanadi. Xususiy tajribalar asosida boyitib boriladi. Pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismi hisoblanadi har bir pedagogning natijasi har -xil bo`ladi.
6	Natija kafolati	Oldindan belgilangan maqsadga erishish kafolati bor.	Oldindan belgilangan maqsadga har bir o`qituvchi o`z imkoniyatlariga muvofiq turli darajada erishadi. Shu sababli talab darajasidagi natija kafolatlanmaydi. Asosan ijodkor o`qituvchilargina yaxshi natijalarga erishadilar.
7	Kelib chiqishi	Xususiy metodikalarning rivojlanishi natijasida kelib chiqqan.	Ta'lim tarbiyaning turli xususiy masalalarini hal qilish zarurati natijasida kelib chiqqan.

Ushbu farqlar yuzasidan quyidagi fikrni eslash mumkin: **”Aslida zamonaviy ta’lim metodlari muqaddas qiziquvchanlikni hozircha batamom bo`g`ib tashlamagani deyarli mo`jiza, chunki bu nozik nihol ( ya’ni qiziquvchanlik) rag`batlantirish bilan bir qatorda, eng avvalo, erkinlikni talab qiladi, yo`qsa, u shaksiz, mahv bo`ladi”.** ( A.Eynshteyn).

Bu yerda ta'lim metodlari qiziquvchanlikka yetarlicha erkinlik bera olmasligi nazarda tutilmoqda. Pedagogik texnologiya esa bolaning qiziquvchanligini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan.

“Pedagogik texnologiya” tushunchasi xususiy fanlar va mahalliy darajalardagi o'qitish metodikalari tushunchasi bilan mos keladigan hollar xususiy darajadagi pedagogik texnologiyalarga tegishli. Ular orasida faqat asosiy e'tiborni nimaga qaratilishida farqlar mavjud.

Texnologiyalarda ko'proq prosesual, miqdoriy va hisob-kitob komponentlari ifodalansa, metodikalarda maqsad, mazmun, sifat va variantli yo'naltiruvchi tomonlari ko'proq ifodalanadi. Texnologiya metodikalardan o'zining qayta tiklanuvchanligi, natijalarining turg'unligi, ko'plab “agar”lar (agar o'qituvchi iste'dodli, agar bolalar qobiliyatli bo'lsa, agar yaxshi ota-onalar bo'lsa....) yo'qligi bilan farq qiladi. Ya'ni texnologiya tegishli tayyorgarlikka ega bo'lgan hamma mutaxassislar tomonidan qayta tiklash va qo'llash mumkinligi bilan juda ham individual bo'lgan metoddan farq qiladi.

**Metod** – biror harakatni amalga oshirish yo'li, usuli yoki ko'rinishidan iborat.

Bunda harakatni amalga oshirish yo'li deb, bajarilishi talab etilayotgan faoliyat uchun qo'llash mumkin bo'lgan bir nechta yo'ldan oldindan ko'zda tutilgan maqsadga muvofiq ravishda tanlangan yo'lga aytiladi.

Harakatni amalga oshirish usuli deb, tanlangan ma'lum yo'ldan foydalangan holda oldindan ko'zda tutilgan maqsadga erishish uchun qo'llaniladigan harakat usullariga aytiladi.

Hozircha metodlar, metodikalar va texnologiyalar bitta tushuncha sifatida idrok qilinmoqda. Texnologiyalar va metodikalarni aralashtirilib yuborish shunday hollarga olib keladiki, ba'zan metodika texnologiyalar tarkibiga kirib qoladi, ba'zan esa aksincha

Pedagogik texnologiya o'quv jarayoni (ya'ni o'qituvchining o'quvchining faoliyati bilan), uning tarkibi, vositalari, usullari va shakllari bilan eng ko'p darajada bog'langan.

**O'quv fani va uni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq bo'lgan pedagogik texnologiyalarni tanlash**

### **Pedagogik texnologiyaning asosiy yo'nalishlari.**

Pedagogik texnologiyaning yo'nalishlari ko'p bo'lib, ulardan ayrimlari quyidagilar:

**Hozirgi an'anaviy ta'lim.** XVII asrda Ya.A.Komenskiyning didaktik tamoyillari asosida shakllanib, hozirda dunyodagi maktablarda eng ko'p qo'llanayotgan sinf-dars tizimidan iborat. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosan shu tizimni turli yo'nalishlarda takomillashtirish maqsadlarida yaratilib, hozirda turli yo'nalishlarda rivojlanmoqda.

**Pedagogik jarayonni takomillashtirish, uni o'quvchi shaxsiga yo'naltirishga** asoslangan pedagogik texnologiyalar: hamkorlik pedagogikasi, ta'limning insonparvarlikka asoslangan texnologiyasi va boshqalar.

**O'quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirish** asosidagi pedagogik texnologiyalar. Muammoli ta'lim, o'yinlar, tayanch signallar konspektlari texnologiyalari va boshqalar.

**O'quv materialini didaktik jihatdan takomillashtirish va qayta ishlab chiqishga** asoslangan pedagogik texnologiyalar. Bu texnologiyalar o'rgatilayotgan bilimlarning didaktik tizimi chuqur mazmunga ega bo'lishi, bilimlarga tizimli nuqtai nazardan yondashish, o'quvchilarga bilimlarni egallashning eng maqsadga muvofiq yo'llarini o'rgatish kabi tamoyillarga asoslanadi.

**O'quv jarayonini samarali boshqarish va tashkil qilishga** asoslangan pedagogik texnologiyalar. Bu texnologiyalarga tabaqalashtirilgan, individuallashtirilgan, dasturlashtirilgan ta'lim texnologiyalari; ta'limning jamoa usuli, guruhli, kompyuterli ta'lim texnologiyalari kabilar kiradi.

**Tabiatga muvofiqlashtirilgan** pedagogik texnologiyalar. Bularga o'quvchining tabiiy imkoniyatlari, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishning tabiiy imkoniyatlari va boshqa tabiatga muvofiq imkoniyatlardan to'liq foydalanishni amalga oshirishga asoslangan pedagogik texnologiyalar kiradi.

**Rivojlantiruvchi ta'lim** texnologiyalari. Bularga o'quvchi shaxsining ijobiy sifatlarini, ayrim sohalaridagi bilimlarini, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyalari kiradi.

Bulardan tashqari **xususiy (O'quv fanlari)** pedagogik texnologiyalari, **alternativ** hamda **mualliflik** pedagogik texnologiyalari yo'nalishlari ham mavjud.

Shuningdek, hozirda pedagogik texnologiyalarning boshqa yo'nalishlari ham mavjud bo'lib, ulardan asosiylari empirik, kognitiv, evristik, kreativ, inversion, integrativ, adaptiv, inklyuziv pedagogik texnologiyalardan iborat. Bu yo'nalishlarning asosiy xususiyatlari quyidagicha:

**Empirik**-(tajriba) sezgi a'zolari orqali bilim olish. Bu texnologiyada asosiy e'tibor sezgi a'zolarining tabiiy rivojlanganlik imkoniyatlariga tayangan holda bilim berish va ularni yanada takomillashtirib borishga qaratiladi.

**Kognitiv**-(bilishga oid) atrofdagi olam to'g'risidagi bilimlar doirasini kengaytirish texnologiyasi. U tabaqalash (tarkibiy qismlarga ajratib o'rganish) tafakkurini shakllantiradi, bilish ehtiyojlarini rivojlantiradi.

**Evristik**-(haqiqatni topish) yo'naltiruvchi savollar berish yo'li bilan ta'lim berish tizimi. Topqirlik, faollikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi, o'quv-izlanish ta'lim metodi. Optimallashtirilgan (ko'p variantlardan eng ma'qulini, mosini, muvofiq'ini tanlash) tafakkurni rivojlantiradi.

**Kreativ**-(ijodiy) tadqiqot xarakteriga, xususiyatiga ega bo'lib, o'quvchilarda maqsadga yo'naltirilgan ijodiy tafakkurni jadal rivojlantiradi.

**Inverison**-(almashtirish) axborotlarni turli tomondan o'rganish, o'rnini almashtirish xususiyatiga ega bo'lib, tafakkur (fikrlash) tizimini shakllantiradi.

**Integrativ**-(yaxlitlash) axborotlarni tashkil qiluvchi cheksiz ko'p kichik qismlarning o'zaro ajralmas bog'liqligi, ularning yaxlitligi, bir butunligi asosida yagona to'g'ri xulosani aniqlash.

**Adaptiv**-(moslashtirish) axborotlarni va ulardan foydalanish jarayonini o'rganish hamda o'rgatish uchun qulaylashtirish, moslashtirish asosida kutilgan natijaga erishish.

**Inklyuziv-**(tenglik) o'qituvchi bilan o'quvchining o'zaro munosabatlarida tenglik asosida ta'lim tarbiya jarayonini tashkil qilish. Shu bilan birga, imkoniyati cheklangan o'quvchilarning sog'lom o'quvchilar bilan birgalikda o'qishini tashkil qilish pedagogik texnologiyasi.

Pedagogik texnologiyaning asosiy yo'nalishlari hozirgi an'anaviy ta'limni turli yo'nalishlarda takomillashtirish maqsadlarida yaratilib, hozirda rivojlanib bormoqda. Turli fan o'qituvchilari tomonidan har bir o'quv fanining asosiy xususiyati, mazmunining tarkibi, amaliy, nazariy qismlarining nisbatiga muvofiq ravishda eng qulay pedagogik texnologiyalarning empirik, kognitiv, evristik, kreativ, inversion, integrativ, adaptiv, inklyuziv va boshqa yo'nalishlarini to'g'ri tanlash jiddiy ahamiyatga ega.

### **Dars moduli va algoritmi**

**Modul-** pedagogik texnologiyani o'z ichiga olgan tarkibiy bo'lak bo'lib ; o'quv materiali mazmuni hamda dars jarayoni modullaridan tashkil topadi . Pedagogik texnologiya materiallarini modullariga ajratish modullashtirish jarayoni bilan, kichik modul, modullar to'plami, birlamchi modul va modul darajasi tushunchalaridan foydalaniladi va quyidagichata'riflanadi.

**kichik modul,-** pedagogik texnologiya tarkibidagi eng kichik birlikni ifodalaydi. Amalda bunday kichik modulni tashkil qiluvchi boshqa kichik modullarga ajratish mumkin emas deb hisoblanadi.

**birlamchi modul-** pedagogik texnologiyani uning biror darajasidan boshlab tasvirlashga dastlabki modul sifatida tanlangan va o'z tarkibiga bir yoki bir nechta kichik modullarni oladigan modul.

**modullar to'plami,-** pedagogik texnologiyani uning biror darajasidan boshlab tasvirlash maqsadida bitta modul sifatida hisoblangan bir nechta modullar yig'indisi.

**modul darajasi-** birlamchi modullarning o'z tarkibida aslida qancha modullarga ega ekanligiga qarab quyidagi darajalarga bo'linadi:

- Bir o'quv mashg'ulotini o'tkazishga mo'ljallangan modullar;
- O'quv fanining bir mavzusini, bir bo'limini, bir qismini yoki hamma tarkibiy bo'laklarini o'qitish texnologiyasini tashkil etuvchi modullar.Ularni bloklar deb ham nomlanadi;
- Bir nechta turdosh o'quv fanlarini yoki ayrim fanlarni o'qitish texnologiyasini tashkil qiluvchi modullari;
- DTSning tarkibiy bo'laklarini va ularni bajarish texnologiyasini tashkil qiluvchi modullar;
- O'quv reja va dasturlarning tarkibiy bo'laklarini va ularni bajarish texnologiyasini tashkil qiluvchi modullar;
- Ta'lim vositalarini tashkil qiluvchi modullar;
- Pedagogik texnologiya jarayonida qo'llaniladigan usullarni tashkil qiluvchi modullar.

**Algoritm** - pedagogik texnologiya bo'laklari (modullar)ning o'zaro joylashuvini hamda pedagogik texnologiya jarayonlarini amalga oshirish ketma - ketligining avvaldan belgilangan tartibi, ya'ni qoidasidir.



**Algoritm**lash esa pedagogik texnologiya tarkibiy bo`laklarini amalga oshirish jarayonining ketma-ketligini belgilash bo`lib, ko`zlangan maqsadga erishish kafolatini amalga oshiradi. Odatda, pedagogik texnologiyani loyihalashda oldin uning algoritmi ishlab chiqiladi. Shu algoritmgaga muvofiq holda modullarning o`zaro joylashuvi tartibi aniqlanadi.

Pedagogik texnologiyada algoritmlar alohida mashg`ulot yoki uning biror bo`lagi algoritmi, o`quv fanini o`qitishning umumdidaktik izchilligi algoritmi, o`quvchi faoliyatini, o`qituvchi faoliyati, o`zlashtirishni nazorat qilish jarayoni, maktabni boshqarish jarayoni algoritmi kabi turlarga bo`linadi.

Pedagogik faoliyatning eng kichik bo`laklari o`zaro joylashuvini va shu faoliyatni amalga oshirish ketma-ketligini belgilash algoritm

lashning birlamchi darajasi bo`lib, ularni birlamchi algoritmlar deyiladi. Algoritm

lash orqali pedagogik texnologiyani tegishli

## TOPSHIRIQ

Mavzu bo`yicha olgan bilimingizni quyidagi topshiriqni bajarish orqali tekshiring:

1) Quyida berilgan gaplardagi nuqtalar o`rniga so`z yoki so`z birikmasini qo`ying: \_\_\_\_\_ ta`limda pedagogik texnologiyalarni tanlash mezonini hisoblanadi.

YUNESKO me`yoriy hujjatlarida pedagogik texnologiyaga quyidagicha ta`rif berilgan: Pedagogik texnologiya – bu o`z oldiga ta`lim shaklini jadallashtirish \_\_\_\_\_ qo`yuvchi, butun \_\_\_\_\_ va \_\_\_\_\_ jarayonini \_\_\_\_\_ va \_\_\_\_\_ o`zaro hamkorlikdagi faoliyatini hisobiga olgan holda yaratish, aniqlash va tadbiriq etishning tizimli \_\_\_\_\_.

\_\_\_\_\_ – o`qituvchi va o`quvchilarning birgalikdagi faoliyatini tartibga solish yo`llari, pedagogik texnologiyalarning asosiy tarkibi hisoblanadi.

2) Shunday fikr mavjud: «O`quv jarayoni, dars moduli – yagona muayyan bir maqsadga erishish uchun belgilangan o`quv vaqtining bir bo`lagidir. Dars modulining oltita turi: tashkiliy, takrorlash, yangi materialni o`rganish, mustaxkamlash, nazorat, korreksiya shakllari mavjuddir. Shunga ko`ra har bir dars doimo bir nechta modullar majmuasidan iborat bo`ladi». Ushbu berilgan fikrga qo`shilasizmi? Ushbu fikrni ma`qullovchi, ya`ni «ijobiy» yoki rad etuvchi «qarshi», («salbiy») 2-3 ta fikr keltiring va asoslab bering.

1- dalil

2- dalil

3- dalil

3) Darsga tayyorgarlik texnologik xaritasi shaklini ko‘rib chiqing. Texnologik xarita bandlarini dasr rejangiz bandlari bilan taqqoslang. Savollarga javob bering: Qaysi bandlari mos keldi/mos kelmadi? Nima uchun? Sizningcha qaysi bandlari samarasiz? Nima uchun? Darsni tashkil etishdagi qaysi muammolarni hal etishda texnologik xarita yordam beradi?

**DARSNING TEXNOLOGIK XARITASI**

Fan		
O‘quv dasturidagi joyi (tartib raqami)		
Dars mavzusi		
Davomiyligi		
Dars maqsadi:	Didaktik(ta’limiy)	
	Rivojlantiruvchi	
	Tarbiyaviy	
Kutilayotgan natija		

**DARS JIHOZI**

Didaktik materiallar	
Ta’limning texnik vositalari	

**DARS MAZMUNI**

t/ b №	Bosqichlar	Vaqt	Metod va faoliyatning tavsifi
	<i>Tashkiliy</i>		
	<i>O‘tilganlarni takrorlash</i>		
	<i>Yangi mavzu</i>		
	<i>Amaliy topshiriqlar</i>		
	<i>Nazorat</i>		
	<i>Dars yakuni</i>		

Darsning texnologik xaritasi va dars rejasi (konspekti) mazmunining ijobiy (+) va salbiy (-) tomonlarini aniqlang. So‘ngra plus va minuslar soniga qarab eng maqbul yondashuvni tanlang. Har bir yondashuv bo‘yicha tadqiqot natijalarini jadvalga kiriting. Ushbu taqqoslash tahlilini o‘tkazish uchun «qarorlar daraxti» metodidan foydalaning.

<i>Dars rejasi (konspekti)</i>		<i>Darsning texnologik xaritasi</i>	
(+)	(-)	(+)	(-)
<b>MENING TANLOVIM:</b>			

## **MAVZU: INTERFAOL TA'LIM, UNING SHAKLLARI VA ISHTIROKCHILARI.**

### **Interfaol metodlarning ta'lim va tarbiya jarayonidagi o'rni va imkoniyatlari**

Interfaol metod – ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta'limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma'ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko'pligi, o'quvchilar tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega.

### **Interfaol mashg'ulot samaradorligi omillari**

Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Barcha fan o'qituvchilari dars mashg'ulotlari jarayonida interfaol usullardan borgan sari kengroq foydalanmoqdalar.

Interfaol usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi.

Bu masalada amerikalik psixolog va pedagog B.Blum bilish va emotsional sohalaridagi pedagogik maqsadlarning taksonomiyasini yaratgan. Uni **Blum taksonomiyasi** deb nomlanadi. (Taksonomiya-borliqning murakkab tuzilgan sohalarini tasniflash va sistemalashtirish nazariyasi). U tafakkurni bilish qobiliyatlari rivojlanishiga muvofiq ravishdagi oltita darajaga ajratdi.

Unga ko'ra tafakkurning rivojlanishi bilish, tushunish, qo'llash, tahlil, umumlashtirish, baholash darajalarida bo'ladi. Shu har bir daraja quyidagi belgilar hamda har bir darajaga muvofiq fe'llar namunalari bilan ham ifodalanadi, jumladan:

Bilish-dastlabki tafakkur darajasi bo'lib, bunda o'quvchi atamalarni ayta oladi, aniq qoidalar, tushunchalar, faktlar va shu kabilarni biladi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: qaytara bilish, mustahkamlay olish, axborotni etkaza

olish, aytib bera olish, yozish, ifodalay olish, farqlash, taniy olish, gapirib berish, takrorlash.

Tushunish darajasidagi tafakkurga ega bo'lganda esa, o'quvchi faktlar, qoidalar, sxema, jadvallarni tushunadi. Mavjud ma'lumotlar asosida kelgusi oqibatlarni taxminiy tafsiflay oladi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: asoslash, almashtirish, yaqqollashtirish, belgilash, tushuntirish, tarjima qilish, qayta tuzish, yoritib berish, sharhlash, oydinlashtirish.

Qo'llash darajasidagi tafakkurda o'quvchi olgan bilimlaridan faqat an'anaviy emas, no'anaviy holatlarda ham foydalana oladi va ularni to'g'ri qo'llaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: joriy qilish, hisoblab chiqish, namoyish qilish, foydalanish, o'rgatish, aniqlash, amalga oshirish, hisob-kitob qilish, tatbiq qilish, hal etish.

Tahlil darajasidagi tafakkurda o'quvchi yaxlitning qismlarini va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni ajrata oladi, fikrlash mantiqidagi xatolarni ko'radi, faktlar va oqibatlar orasidagi farqlarni ajratadi, ma'lumotlarning ahamiyatini baholaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: keltirib chiqarish, ajratish, tabaqalashtirish, tasniflash, taxmin qilish, bashorat qilish, yoyish, taqsimlash, tekshirish, guruhlash.

Umumlashtirish darajasidagi tafakkurda o'quvchi ijodiy ish bajaradi, biror tajriba o'tkazish rejasini tuzadi, birnechta sohalardagi bilimlardan foydalanadi. Ma'lumotni yangilik yaratish uchun ijodiy qayta ishlaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: yangilik yaratish, umumlashtirish, birlashtirish, rejalashtirish, ishlab chiqish, tizimlashtirish, kombinastiyalashtirish, yaratish, tuzish, loyihalash.

Baholash darajasidagi tafakkurda o'quvchi mezonlarni ajrata oladi, ularga rioya qila oladi, mezonlarning xilma-xilligini ko'radi, xulosalarning mavjud ma'lumotlarga mosligini baholaydi, faktlar va baholovchi fikrlar orasidagi farqlarni ajratadi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: tashxislash, isbotlash, o'lchash, nazorat qilish, asoslash, ma'qullash, baholash, tekshirish, solishtirish, qiyoslash.

Interfaol usullar ko'p turli bo'lib, ularning hammasi ham har qanday progressiv usullar kabi eng avvalo, o'qituvchidan mashg'ulot oldidan katta tayyorgarlik ko'rishni talab qiladi.

Shu mashg'ulotlarni tashkil qilishda interfaol darsning asosiy xususiyatlarini uning an'anaviy darsga nisbatan ayrim farqlarini ko'rib chiqish orqali yaqqolroq idrok etish mumkin. Shu maqsadda quyidagi jadvalni keltiramiz:

### **An'anaviy hamda interfaol dars orasidagi ayrim farqlar**

	Asosiy tushunchalar	An'anaviy dars	Interfaol dars
--	---------------------	----------------	----------------

qo'llanish darajasi	Barcha mavzular bo'yicha ular uchun qulay bo'lgan dars turlari shaklida qo'llaniladi.	Ayrim mavzular bo'yicha interfaol darsning qulay bo'lgan turlari shaklida qo'llaniladi. Boshqa mavzular uchun an'anaviy dars qo'llaniladi
Dars maqsadi	Dars mavzusi bo'yicha bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish, mustahkamlash.	Dars mavzusi bo'yicha mustaqil fikrlash, xulosaga kelish, ularni bayon qilish, himoyalashga o'rgatish.
O'qituvchining vazifalari va ish usullari	Yangi mavzuni tushuntirish, mustahkamlash, nazorat, topshiriqlar berish.	O'quvchilarning mustaqil ishlashlarini va taqdimotlarini tashkil qilish, boshqarish, nazorat, yakuniy xulosalarni asoslab berish.
Darsga tayyorgarlikka talablar	Dars rejasi, konspekt va didaktik vositalarni tayyorlash.	Interfaol dars ishlanmasi, mustaqil ishlar uchun topshiriqlar, tarqatma materiallar, boshqa zarur vositalarni tayyorlash.
O'quvchilar tayyorgarligiga talablar	Oldingi dars bo'yicha vazifalarni bajarib kelish.	Yangi dars mavzusi bo'yicha asosiy tushunchalarni va dastlabki ma'lumotlarni bilish.
O'quvchilarning vazifalari va ish usullari	O'qituvchini tinglash va o'zlashtirish, berilgan topshiriqlarni bajarish.	O'qituvchi bergan topshiriqlarni bajarish bo'yicha mustaqil fikrlash, o'z fikr, xulosalarini boshqalarga solishtirish va yakuniy xulosaga kelish
Vaqt taqsimoti	Dars vaqtining ko'p qismi o'qituvchining yangi mavzuni tushuntirishi, tahlil qilishi, topshiriqlarni tushuntirishi, o'zlashtirishni nazorat qilishiga sarflanadi.	Dars vaqtining ko'p qismi o'quvchilarning mustaqil topshiriqlarni bajarishi, fikr almashishi, mushohada qilishi, o'z xulosalarini bayon qilishi va himoyalashiga sarflanadi.
Darsning modul va algoritmlari	Darsning modul va algoritmlaridan har bir o'qituvchi o'zi qo'llayotgan metodga muvofiq foydalanadi.	Har bir dars oldindan tayyorlangan modullar va algoritmlarga, loyihalarga muvofiq o'tkaziladi.

	O'quvchilardan talab qilinadigan faollik darajasi	O'qituvchi har tomonlama faol, o'quvchilar diqqatni jamlash, tushunish, fikrlash, topshiriqlarni bajarish bo'yicha faol. Muloqot shakllari: o'qituvchi-guruh; o'qituvchi-o'quvchi; o'quvchi-o'quvchi; o'quvchi-o'qituvchi; guruh-o'qituvchi;	O'qituvchi ham, o'quvchilar ham har tomonlama faol. Hamkorlik, hamijodkorlik shakllari: o'qituvchi-o'quvchi; o'quvchi-o'quvchi; o'quvchi-kichik guruh; kichik guruh-kichik guruh; o'quvchi-o'qituvchi; kichik guruh-o'qituvchi; guruh-o'qituvchi.
0	Bilimlarning o'zlashtirishning asosiy usullari	Muloqot, muhokama, muzokara, bahs, munozara, mulohaza, tahlil, mushohada, mutolaa va boshqalar.	Muloqot, mutolaa, mushohada, muhokama, muzokara, bahs, munozara, mulohaza, tahlil va boshqalar.
1	Mashg'ulot shakllari	Ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulot, laboratoriya mashg'uloti, davra suhbat, bahs, munozara, konsultastiya va boshqalar.	Ma'ruza, guruh yoki juft bo'lib ishlash, taqdimotlar, bahs, munozara, davra suhbat, amaliy ishlar va boshqalar.
2	Kutiladigan natija	Mavzu bo'yicha o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalarini o'zlashtirishlari.	Mavzu bo'yicha o'quvchilarning o'z fikr, xulosalarini shakllantirish, ularni mustaqil bilim olishga o'rgatish.

Bu jadvalda hajm oshib ketmasligi uchun fikr juda qisqa bayon qilindi.

Jadvalda keltirilgan farqlar shu ikki mashg'ulot turining bir-biriga nisbatan afzal va kamchilik tomonlarini yaqqol ko'rsatib turibdi.

Interfaol mashg'ulotning ushbu jadvalda ko'rsatilgan ayrim jihatlarini tahlil qilish asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. O'quv rejadagi fanlarni o'qitishda qaysi mavzular bo'yicha interfaol darslar tashkil qilish maqsadga muvofiqligini hisobga olish zarur. Bunda hap bir mavzu bo'yicha mashg'ulotning maqsadiga to'liq erishishni ta'minlaydigan interfaol yoki an'anaviy mashg'ulot turlaridan foydalanish ko'zda tutiladi.

2. Interfaol mashg'ulotning samarali bo'lishi uchun o'quvchilar yangi mashg'ulotdan oldin uning mavzusi bo'yicha asosiy tushunchalarni va dastlabki ma'lumotlarni bilishlarini ta'minlash zarur.

3. Interfaol mashg'ulotda o'quvchilarning mustaqil ishlashlari uchun an'anaviy mashg'ulotga nisbatan ko'p vaqt sarflanishini hisobga olish zarur.

Shularga o'xshash farqlarning ijtimoiy hayotdagi ta'siri to'g'risida bir necha asr muqaddam A.Navoiy o'zining mashhur "Mahbub ul-qulub" asari muqaddimasida shunday yozgan edi: "Umid ulkim, o'qig'uvchilar diqqat va e'tibor ko'zi bila nazar solg'aylar va har qaysisi o'z fahmu idroklariga ko'ra bahra olg'aylar...". Bunda shu asarni har kim turlicha, ya'ni o'z fahmi idroki darajasidagina tushunishi, o'zlashtirishi, foyda ola bilishi va amalda qo'llay bilishi ko'rsatib o'tilgan bo'lib, bundan biz interfaol ta'lim usullarining an'anaviy usullardan asosiy farqlari to'g'risida yuqorida aytgan xulosalarimizni yanada qisqa qilib, o'quvchilarning fahmu idroklarini o'stirishdan iborat, deb ifodalashimiz mumkin.

Bunda ta'kidlash lozimki, interfaol ta'lim usullari O'zbekistonda qadim zamonlardan beri ta'lim-tarbiya jarayonida muallim bilan talabalar hamda talabalar bilan talabalar o'rtasidagi muloqotlarda muhokama, munozara, muzokara, mushohada, tahlil, mashvarat, mushoira, mutolaa kabi shakllarda qo'llab kelingan.

Bu usullar talabalarning nutq, tafakkur, mulohaza, zehn, iste'dod, zakovatlarini o'stirish orqali ularning mustaqil fikrlaydigan, komil insonlar bo'lib etishishlariga xizmat qilgan.

Hozir interfaol mashg'ulotlarni olib borishda ma'lumki, asosan interfaol usullar qo'llanilmoqda. Kelgusida esa bu usullar ma'lum darajada interfaol texnologiyaga o'sib o'tishi maqsadga muvofiq. Bu interfaol usul hamda texnologiya tushunchalarining o'zaro farqini bizningcha, shunday ta'riflash mumkin.

Interfaol ta'lim usuli – har bir o'qituvchi tomonidan mavjud vositalar va o'z imkoniyatlari darajasida amalga oshiriladi. Bunda har bir o'quvchi o'z motivlari va intellektual darajasiga muvofiq ravishda turli darajada o'zlashtiradi.

Interfaol ta'lim texnologiyasi - har bir o'qituvchi barcha o'quvchilar ko'zda tutilgandek o'zlashtiradigan mashg'ulot olib borishini ta'minlaydi. Bunda har bir o'quvchi o'z motivlari va intellektual darajasiga ega holda mashg'ulotni oldindan ko'zda tutilgan darajada o'zlashtiradi.

Interfaol mashg'ulotlarni amalda qo'llash bo'yicha ayrim tajribalarni o'rganish asosida bu mashg'ulotlarning sifat va samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi ayrim omillarni ko'rsatishimiz mumkin. Ularni shartli ravishda tashkiliy-pedagogik, ilmiy–metodik hamda o'qituvchiga, o'quvchilarga, ta'lim vositalariga bog'liq omillar deb atash mumkin. Ular o'z mohiyatiga ko'ra ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishini nazarda tutishimiz lozim.

Tashkiliy-pedagogik omillarga quyidagilar kiradi:

-o'qituvchilardan interfaol mashg'ulotlar olib boruvchi trenerlar guruhini tayyorlash;

- o'qituvchilarga interfaol usullarni o'rgatishni tashkil qilish;
- o'quv xonasida interfaol mashg'ulot uchun zarur sharoitlarni yaratish;
- ma'ruzachining hamda ishtirokchilarning ish joyi qulay bo'lishini ta'minlash;
- sanitariya-gigiena me'yorlari buzilishining oldini olish;
- xavfsizlik qoidalariga rioya qilishni ta'minlash;
- davomatni va intizomni saqlash;
- nazorat olib borishni tashkil qilish va boshqalar.

Ilmiy-metodik omillarga quyidagilar kiradi:

-DTS talablarining bajarilishini hamda darsdan ko'zda tutilgan maqsadga to'liq erishishni ta'minlash uchun maqsadga muvofiq bo'lgan interfaol usullarni to'g'ri tanlash;

-interfaol mashg'ulot ishlanmasini sifatli tayyorlash;

-interfaol mashg'ulotning har bir elementi o'rganilayotgan mavzu bilan bog'liq bo'lishini ta'minlash;

-mashg'ulotlar mavzusi va mazmunini so'nggi ilmiy-nazariy ma'lumotlar asosida belgilash;

-zamonaviy yuqori samarali metodlarni qo'llash;

-o'quvchilarning tayyorgarlik darajasini oldindan aniqlash va shunga mos darajadagi interfaol mashg'ulotlarni o'tkazish;

-interfaol mashg'ulot uchun yetarlicha vaqt ajrata bilish va boshqalar.

O'qituvchiga tegishli omillar:

-mavzuni sayoz bilishi;

-nutqidagi kamchiliklar: talaffuz, adabiy til me'yorlari, grammatika qoidalari, notanish yoki xorijiy so'zlar, atamalarning ma'nosini tushuntirmasdan qo'llashi, shevaga xos so'zlarni ko'p qo'llashi, yozib namoyish qilishda xatoga yo'l qo'yishi va tushunarsiz yozishi;

-o'zini tutishi va pedagogik xulqidagi nuqsonlar;

-kiyinishi va tashqi ko'rinishiga e'tiborsizligi;

-ta'lim vositalaridan unumli va to'g'ri foydalana olmasligi;

-kuzatuvchanlik, vaqtning o'tishini his qilish, uni to'g'ri taqsimlash ko'nikmasi etishmasligi;

-tinglash ko'nikmasi yetishmasligi;

-o'quvchiga xayrixohlik, samimiylilik, u bilan hamkorlikda ish olib borish ko'nikmasi yetishmasligi;

-mantiqiy bog'liqlik va izchillikka rioya qilmaslik va boshqalar.



o'quvchilarga tegishli omillar:

- davomat pastligi, mashg'ulotga kechikib kelishi;
- zarur tayyorgarliksiz kelishi;
- ilmiy atamalarni bilmasligi;
- diqqatni jamlay olmasligi;
- eshitish qobiliyatidagi va tinglash ko'nikmasidagi kamchiliklar;
- qiziqishning pastligi, fikr yuritishning sustligi;
- dars mavzusi bo'yicha tayyorgarlik darajasining pastligi;
- manfaatdorlikning kamligi va boshqalar.

Mashg'ulotda foydalaniladigan vositalarga tegishli omillar:

-ta'lim vositalarining etishmasligi, ta'mirtalab yoki yaroqsiz holda bo'lishi, sifatli va zamonaviy vositalarning kamligi;

-mashg'ulot mavzusini o'zlashtirish uchun maqsadga muvofiq vositalar turlarini va sonini to'g'ri tanlamaslik;

-vositalarni mashg'ulot boshlanmasidan oldin ishga tayyorlab qo'yimaslik;

-vositalardan foydalanishda xavfsizlik qoidalariga rioya qilmaslik va boshqalar.

Xulosa qilib aytganda, interfaol mashg'ulotlarni yuqorida qisqacha bayon qilingan omillarni hisobga olgan holda tashkil qilish va olib borish bu mashg'ulotlarning sifati va samaradorligini yanada oshirishga yordam beradi.

### **Interfaol ta'lim va tarbiya jarayoni ishtirokchilari**

Interfaol mashg'ulotlar o'ziga xos tashkiliy tuzilishga ega bo'lib, uni tashkil qilish va olib borish bo'yicha faoliyat turlari alohida ajratilgan va har biri bo'yicha alohida vazifalar shaklida nomlar berilgan. Bunda bir mashg'ulot jarayonida shu mashg'ulotni olib boruvchi bir vaqtda ushbu turli vazifalarni bajarishi ko'zda tutiladi. Shu bilan birga bir mashg'ulotni ikki yoki uch pedagog yoki yordamchilar birgalikda olib borishi ham qo'llaniladi. Ular bajaradigan vazifalariga ko'ra quyidagicha nomlanadilar:

1. **Moderator** – ta'lim mazmunini yaratish, modullarini ishlab chiqish.
2. **Trener**–o'quvchilarning ko'nikmalarini rivojlantiruvchi mashqlar o'tkazuvchi maxsus tayyorgarlikdan o'tgan mutaxassis.
3. **Tyutor**–masofadan o'qitish dasturlarini yaratish va bajarilishini ta'minlash.
4. **Fasilitator**–darsda ko'makchi, yo'naltiruvchi, jarayonga javob bermaydi, xulosa chiqarmaydi.
5. **Mentor**–ustoz, o'rgatuvchi (yakka va guruhli tartibda).
6. **Kouch**–ta'lim oluvchilarning to'liq o'zlashtirishlari uchun yordam ko'rsatuvchi repititor, instruktor, trener. Amaliyot davomida amaliy mashg'ulotni,

ish jarayonini nazorat qiluvchi, kuzatuvchi. (Kouching-imtihonlarga yoki sport bo'yicha tayyorgarlik ko'rish).

7. **Konsultant**–maslahat berish, tushuntirish, qo'shimcha ma'lumot berish.
8. **Lektor**–nazariy ma'lumotlar bilan tanishtiruvchi.
9. **Ekspert** – kuzatish, tahlil, tekshirish, xulosa, tavsiya, taklif, mulohaza bildirish.
10. **Innovator**–yangiliklarni ta'lim mazmuni va mashg'ulotlar jarayoniga joriy qilish.
11. **Kommunikator**–o'zaro muloqotlarning sifati va samaradorligini oshirish, takomillashtirish.
12. **O'qituvchi**–mashg'ulot mavzusi bo'yicha ko'zda tutilgan mazmuni tushuntirish, o'quv jarayoniga rahbarlik.
13. **Menejer**–tashkiliy–pedagogik va iqtisodiy masalalarni hal etish.
14. **Spekter**–kuzatish, tahlil qilish va xulosalarni bayon qilish.
15. **Assistent**–mashg'ulot uchun tayyorlangan vositalarni amalda qo'llashga tayyorlash, mashg'ulot ishtirokchilariga yordam ko'rsatib turish.
16. **Sekretar**–zarur ma'lumotlarni yozib borish, tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish, o'rnatilgan tartibda saqlash.
17. **Texnolog**–pedagogik texnologiya mutaxassisi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosidagi dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni ta'minlash bilan bog'liq masalalarni hal etib boradi.
18. **Metodist**-ta'lim-tarbiya metodlari bo'yicha mutaxassis. Dasturlarni ishlab chiqishda va amalga oshirish jarayonida metodik masalalarni hal etib boradi.
19. **Koordinator**-loyihalar, dasturlarni ishlab chiqishga rahbarlik, ularni amalga oshirishni rejalashtirish, muvofiqlashtirish, tashkiliy va moliyaviy masalalarni hal etish.

## 20. **O'quvchilar** – ta'lim oluvchilar.

Xulosa qilib aytish mumkinki, interfaol ta'lim bir vaqtda bir nechta masalani hal etish imkoniyatini beradi. Bulardan asosiysi-o'quvchilarning muloqot olib borish bo'yicha ko'nikma va malakalarini rivojlantiradi, o'quvchilar orasida emostional aloqalar o'rnatilishiga yordam beradi, ularni jamoa tarkibida ishlashga, o'z o'rtoqlarining fikrini tinglashga o'rgatish orqali tarbiyaviy vazifalarning bajarilishini ta'minlaydi.

Shu bilan birga, amaliyotdan ma'lum bo'lishicha, dars jarayonida interfaol metodlarni qo'llash o'quvchilarning asabiy zo'riqishlarini bartaraf qiladi, ular faoliyatining shaklini almashtirib turish, diqqatlarini dars mavzusining asosiy masalalariga jalb qilish imkoniyatini beradi.

### **Interfaol metodlarni mashg'ulot maqsadiga muvofiq tanlash**

Interfaol mashg'ulot turlari ko'p bo'lib, ularni dars mavzusining xususiyatlari hamda ko'zda tutilgan maqsadlarga muvofiq tanlanadi va tegishlicha tayyorgarlik ko'riladi. Interfaol mashg'ulotda ishtirok etish uchun o'quvchilarning tayyorliklariga o'ziga xos talablar qo'yiladi, bular mashg'ulotda faol ishtirok etish uchun zarur bilimlarni o'zlashtirganlik, muloqotga tayyorlik, o'zaro hamkorlikda ishlash,

mustaqil fikrlash, o'z fikrini erkin bayon qilish va himoya qila olish ko'nikmalari va boshqalardan iborat.

Mashg'ulotda vaqtdan unumli foydalanish zarur shart hisoblanadi. Buning uchun zarur vositalarni to'g'ri tanlash, tayyorlash hamda mashg'ulot o'tkazuvchilar va ularning vazifalari aniq belgilangan bo'lishi lozim. Interfaol metodlar bilan an'anaviy ta'lim usullari orasida o'ziga xos farqlar mavjud bo'lib, har bir o'qituvchi bu farqlarni qiyoslashi, ularning bir-biriga nisbatan afzalliklari va kamchiliklarini darsni rejalashtirish va uni o'tkazish usullarini tanlashda to'g'ri hisobga olishi zarur.

Bunda yangi bilimlarni berish, ko'nikmalarni shakllantirish, rivojlantirish, mustahkamlash, bilimlarni takrorlash, amalda qo'llash mashg'ulotlarida hamda o'quv fanining xususiyatlarini hisobga olgan holda har bir mavzu bo'yicha mashg'ulot uchun eng maqsadga muvofiq bo'lgan interfaol yoki boshqa metodlarni to'g'ri tanlash nazarda tutiladi.

To'g'ri tanlangan metodlarni qo'llash mashg'ulotning qiziqarli va samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Interfaol metodlar konstruktivizm nazariyasi bilan bog'liq bo'lib, bu metodlardan amalda foydalanishda konstruktivizmning quyidagi asosiy xulosalarini hisobga olish lozim:

O'quvchi o'zi o'rganishi kerak, aks holda unga hech kim hech narsani o'rgata olmaydi;

O'qituvchi o'quvchilarga bilimlarni «kashf qilishga» yordam beradigan jarayonni tashkil qiladi;

Bilim borliqdan ko'chirilgan nusxa emas, uni odam shakllantiradi.

## **MAVZU: MUAMMOLI TA'LIMNING NAZARIY ASOSLARI**

Muammoli ta'lim texnologiyalari o'quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Muammoli ta'lim texnologiyasining asosi – insonning fikrlashi muammoli vaziyatni hal etishdan boshlanishi hamda uning muammolarni aniqlash, tadqiq etish va yechish qobiliyatiga ega ekanligidan kelib chiqadi. Muammoli ta'lim o'quvchilarning ijodiy tafakkuri va ijodiy qobiliyatlarini o'stirishda jiddiy ahamiyatga ega.

Muammoli ta'limning bosh maqsadi – o'quvchilarning o'rganilayotgan mavzuga doir muammolarni to'liq tushunib yetishiga erishish va ularni hal eta olishga o'rgatishdan iborat. Muammoli ta'limni amaliyotda qo'llashda asosiy masalalardan biri o'rganilayotgan mavzu bilan bog'liq muammoli vaziyat yaratishdan iborat.

Turli o'quv fanlari bo'yicha o'qituvchilar darslar jarayonida muammoli vaziyatlar hosil qilishni va ularni yechish usullarini oldindan ko'zda tutishlari kerak.

Muammoli vaziyat yaratish usullari:

- o'qituvchi o'quvchilarga dars mavzusi bilan bog'liq ziddiyatli holatni tushuntiradi va uni yechish yo'lini topishni taklif qiladi;

- bir masalaga doir turli nuqtai-nazarlarni bayon qiladi;

- hal etish uchun yetarli bo'lmagan yoki ortiqcha ma'lumotlar bo'lgan yoki savolning qo'yilishi noto'g'ri bo'lgan masalalarni yechishni taklif etadi va boshqalar.

Muammoli vaziyatni hal etish darajalari:

-o'qituvchi muammoni qo'yadi va o'zi yechadi;

-o'qituvchi muammoni qo'yadi va uning yechimini o'quvchilar bilan birgalikda topadi;

-o'quvchilarning o'zlari muammoni qo'yadilar va uning yechimini topadilar.

Muammoli vaziyatni yechishda qo'llaniladigan usullar:

- muammoni turli nuqtai-nazardan o'rganish, tahlil qilish;

- solishtirish, umumlashtirish;

- faktlarni aniqlash va qiyoslash;

- vaziyatga bog'liq xulosalar chiqarish;

- o'quvchilarning o'zlari aniq savollar qo'yishi va boshqalar.

Muammoli ta'lim texnologiyasi juda qadim zamonlardan shakllanib kelmoqda. Jumladan, qadimgi Grestiyada muammoli savol-javoblar, qadimgi Hindiston va Xitoyda muammoli bahs-munozaralardan keng foydalanilgan. Muammoli ta'limni amerikalik psixolog, faylasuf va pedagog Dj. Dyui 1894 yilda Chikagoda tashkil etgan tajriba maktabida qo'llagan. XX asrning 60-yillarida bu yo'nalishda tadqiqotlar olib borildi. 70-80-yillarga kelib, amaliyotga keng joriy etildi.

Muammoli ta'limning asosiy g'oyasi bilimlarni o'quvchilarga tayyor holda berish emas, ular tomonidan dars mavzusiga tegishli muammolar bo'yicha o'quv-tadqiqotlarini bajarish asosida o'zlashtirilishini ta'minlashdan iborat.

O'zbekistonda muammoli ta'limni qo'llash bo'yicha bir necha asrlar davomida maktab va madrasalarda suqrotona savol-javob usulidan keng foydalanish asosida o'quvchilarda ziyraklik, hozirjavoblik sifatleri hamda go'zal nutq tarkib toptirilgan.

Suqrotona savol-javob usuli hozirgacha eng samarali ta'lim usullaridan biri sifatida qo'llaniladi. Bunda o'quvchi chuqur mantiqiy fikrlashga, ziyraklikka, aniq va to'g'ri so'zlashga, nutqning mantiqiyliigi va ravonligiga hamda tanqidiy, ijodiy fikrlashga o'rgatilgan. Masalan, suqrotona suhbatlar deganda o'qituvchining o'quvchini mustaqil va faol fikrlash jarayoniga olib kirishi hamda uning fikrlashidagi noto'g'ri jihatlarni ziyraklik bilan aniqlagan holda ularni tuzatish yo'liga olib chiqishdan iborat usullar nazarda tutiladi. Bunday suhbat bosqichlarini quyidagicha soddalashtirib ifodalash mumkin;

1. Savol-javoblar orqali o'quvchining bilim darajasi va fikrlash qobiliyatini umumiy tarzda aniqlash.

2. O'rganilayotgan mavzuning mazmunini o'quvchi motivlariga muvofiqlashtirish. Bu, asosan, o'quvchining qiziqish va qobiliyatlariga mos bo'lgan misollar tanlash orqali amalga oshiriladi.

3. O'quvchini faol muloqotga olib kirish. Bunda asosan rag'batlantirish usullaridan foydalaniladi.

4. O'qituvchi o'zini bilmaydigan odamdek, o'quvchidek tutib, savollar berib boradi.

5. O'quvchining to'g'ri fikrlarini maqtash orqali uni yanada erkin va chuqurroq fikrlashga, so'zlashga jalb qilish.

O'quvchining xato fikrlarini aniqlab borish.

7. O'quvchining xato fikrlariga nisbatan to'g'ri fikrni o'qituvchi tomonidan yaqqol mantiqiy asoslangan shaklda bayon qilish yoki tushuntirish orqali o'quvchi uchun muammoli vaziyat yaratiladi va o'quvchini o'z xatolarini o'zi tuzatishiga yo'naltiriladi.

Bundan ko'rinib turibdiki, ushbu usul yuqori natija berishi shubhasiz bo'lib, ammo buning jiddiy shartlari ham mavjud. Bular o'qituvchining keng bilimga va ijodiy fikrlash qobiliyatiga, yuqori muloqot madaniyatiga, pedagogik mahoratga ega bo'lishi kabilardan iborat.

### **Muammoli ta'lim mashg'ulotlarini tashkil etish va boshqarish**

Muammoli ta'lim mashg'ulotlarini tashkil etish va boshqarish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

-o'quv fani va darslar mavzusini o'rgatishda ular bilan bog'liq muammoli masalalarni belgilash;

-ulardan muammoli vaziyatlar hosil qilish va amalda foydalanishni oldindan rejalashtirib borish;

-o'quvchilarning tayyorgarlik darajasini hisobga olish;

-zarur o'quv vositalarini tayyorlash;

-muammoli vaziyatdagi mavjud ziddiyatni ko'rsatish;

-topshiriqni va uni yechish uchun yetarli shartlarni aniq bayon qilish;

-o'quvchilarning muammoni hal etishda yo'l qo'yayotgan xatolarini, ularning sababini va xususiyatini ko'rsatish;

-o'quvchilarning noto'g'ri taxminlari asosida chiqargan xulosalari oqibatini muhokama etib, to'g'ri yo'lni topishlariga ko'maklashish va boshqalar.

Muammoli ta'lim jarayonini quyidagi uchta asosiy bosqichga ajratish mumkin:

1. Muammoli vaziyat hosil qilish.

2. Muammoni yechish taxminlarini shakllantirish.

3. Yechimning to'g'riligini tekshirish (olingan yechim bilan bog'liq axborotni tizimlashtirish orqali).

Muammoli vaziyat hosil qilishda quyidagilar hisobga olinishi lozim:

Muammolar nazariy yoki amaliy yo'nalishda bo'ladi.

Darsda hosil qilinadigan muammoli vaziyat hamda o'quvchilarga hal etish taklif etiladigan muammoga qo'yiladigan eng asosiy talab – o'quvchilarning qiziqishini oshiradigan, eng kamida esa, o'quvchilarda qiziqish hosil qiladigan bo'lishi kerakligidan iborat. Aks holda ko'zda tutilgan natijaga erishish imkoni bo'lmaydi.

Muammo o'quvchilarning bilim darajalariga hamda intellektual imkoniyatlariga mos bo'lishi shart.

Hosil bo'lgan muammoli vaziyatni yechish uchun topshiriqlar yangi bilimlarni o'zlashtirishga yoki muammoni aniqlab, yaqqol ifodalab berishga yoki amaliy topshiriqni bajarishga yo'naltirilgan bo'ladi.

O'quvchilarning muammoli vaziyatni tushunishlari, uning kelib chiqishi sabablari hamda nimalarga, qanchalik darajada bog'liqligini idrok qila olishlari natijasida hosil bo'ladi. Bunday tushuna olish esa o'quvchilarga mustaqil ravishda muammoni ifodalay olish imkoniyatini beradi.

Muammoni yechish taxminlarini shakllantirishda o'quvchi o'zlashtirgan bilimlari asosida kuzatish, solishtirish, tahlil, umumlashtirish, xulosa chiqarish kabi aqliy faoliyatlarni bajaradi.

Aqliy faoliyatdagi asosiy jarayon fikrlash jarayoni bo'lib, fikrlashning sifati uning mantiqiyliги, mustaqilligi, ijodiyliги, ilmiyligi, asosliligi, uzviyligi, tejamliligi, maqsadliligi, tezligi, tahliliyligi, qiyosiyliги, umumlashtirilganliги, xususiyashtirilganliги, kengliги, chuqurligi, ishonarliligi, realligi, haqqoniyliги darajasi bilan belgilanadi.

Shu bilan birga intellektual sifatlar xotira, tasavvur, anglash va shu kabi psixologik jarayonlarning tezligi hamda boshqa parametrlari bilan bog'liq.

Intellektual taraqqiyot darajasi o'qituvchilarda hamda o'quvchilarda qancha yuqori bo'lsa, shunchalik yaxshi natijalarga erishish imkoniyati hosil bo'ladi.

Shunga ko'ra o'quvchilarda muammoni sezish, uni aniqlash, yechimiga doir taxmini to'g'ri belgilash va yechimning to'g'riligini tekshirish qobiliyatlari rivojlanib boradi.

Muammoni hal etishni 3 ta bosqichga ajratish mumkin:

1. Isbotlash – bu muammoning ilgari to'g'ri deb tan olingan sabablar bilan bog'liqliklarini topish asosida amalga oshiriladi.

2. Tekshirish – buni tanlangan sababning oqibatida hal etilayotgan muammo hosil bo'lishi to'g'riligini asoslash bilan amalga oshiriladi.

3. Tushuntirish – bu muammoning yechimi nima uchun to'g'riligini tasdiqlovchi sabablarni aniqlash asosida amalga oshiriladi.

Oguvchilarning ijodiy tafakkur va ijodiy gobiliyatlarini ostirishda muammoliy talimdan unumliiy foydalanish uchun uning ayrim nazariy asoslari sifatida B.Blunning yuqoridagi I.2.- mavzu ilovasida keltirilgan bilish va emotsional sohalardagi pedagogik maqsadlar taksonomiyasi (tafakkurning bilish qobiliyatlari rivojlanishiga muvofiq ravishdagi oltita darajasi)ga hamda G.Gardnerning intellekt koplgi nazariyasiga asoslanish maqsadga muvofiq.

Intellekt koplgi nazariyasining qisqacha bayoni quidagicha:

Bu nazariyani amerikalik psixolog Govard Gardner (1943 yil 11 iyulda tug`ilgan) ishlab chiqqan.

Bu nazariya har bir odam turli darajada ifodalangan kamida sakkizta tipdagi intellektga ega ekanligini ochib berdi. Ular quyidagilar:

1. Verbal-lingvistik intellekt-so`z xotirasi, so`z boyligi yaxshi, o`qishni yaxshi ko`radi, so`z bilan ijod qilishni yoqtiradi. Bular shoir, yozuvchi, notiqalar.

2. Mantiqiy-matematik intellekt-hisoblash va sonlar bilan ishlashni, mantiqiy masalalar, boshqotirmalarni echishni, shaxmat o`ynashni yaxshi ko`radi, tengqurlariga nisbatan ko`proq abstrakt darajada fikrlaydi, sabab-oqibat bog`liqliklarini tushunadi. Bular matematik, fizik va boshqalar.

3. Vizual-fazoviy intellekt-ko`rish obrazlari bilan fikrlaydi, karta, sxema, diagrammalarni tekstga nisbatan oson o`qiydi, xayolga berilish, rasm chizish, modellar konstruktiviyalashni yaxshi ko`radi. Bular rassom, haykaltarosh, me'mor, ixtirochi, shaxmatchilar.

4. Motor-harakatli intellekt-yuqori sport natijasiga erishadi, boshqalarning harakatlari, mimikasi, odatlarini yaxshi takrorlaydi, hamma narsaga qo`l tekkizish, buyumlarni qismlarga ajratish va yig`ish, yugurish, sakrash, kurash tushishni yaxshi ko`radi. Hunarlarga qobiliyatli. Bular raqqos, mim, artist, sportchilar.

5. Musiqiy-ritmik intellekt-qo`shiqlar, kuylarni eslab qoladi, ovozi yaxshi, musiqa asbobini chaladi, xorda ashula aytadi, harakatlari va so`zlashi ritimli, o`zicha sezmasdan kuylaydi, biror ish qilayotib, stolni ritmik chertadi. Bular bastakor, musiqachi, qo`shiqchi, raqqoslar.

6. Shaxslararo intellekt-tengqurlari bilan muloqotni, boshqa bolalar bilan o`ynash va ularga o`rgatishni yaxshi ko`radi, turli holatlarda yetakchi bo`lib qoladi, hamdardlikni, boshqalarga g`amxo`rlik ko`rsatishni biladi, boshqa bolalar unga sherik bo`lishga intiladilar. Bular diniy xodim, siyosatchi, diplomatlar.

7. Ichki shaxsiy intellekt-mustaqillik hissi, iroda kuchini namoyish qiladi, o`zining yaxshi va yomon xislatlarini real anglaydi, vazifalarni hech kim xalaqit bermaganda yaxshi bajaradi, o`zini boshqara oladi, yakka ishlashni ma'qul ko`radi, o`z hissiyotlarini aniq tasvirlaydi, o`z xatolaridan ibrat oladi, o`z qadrini bilish hissi rivojlangan. Bular psixolog, o`qituvchi, tarbiyachilar.

8. Tabiatshunos intellekti-tabiatga, tabiat hodisalariga, jonivorlar, o`simliklarga qiziqadi, tabiat olamini tushunish, atrof-muhitning belgilari va xususiyatlarini farqlash, tasniflash va shu kabilarga qobiliyatini namoyon qiladi. Bular tabiatshunos, ekolog, qishloq xo`jalik xodimlari.

Ayrim bolalar o`zlaridagi eng ustun intellekt tipi orqali boshqalarga nisbatan osonroq o`qishlari mumkin. Har bir boladagi o`z vaqtida aniqlangan va rivojlantirilgan talant unga hayotda yuksak cho`qqilarga erishish uchun yo`l ochib beradi.

Xulosa qilib aytganda, ta`lim jarayoni bolalarga intellektning har xil tiplarini jalb qilishni talab etadigan tajribalar orttirish imkoniyatini beradigan holda tashkil etilishi lozim.

### Topshiriq

Topshiriq mavzusi “Dars o`tganligi haqida hisobot”

Mazkur bo`limni o`zlashtirish natijasida olgan bilimlaringizdan dars o`tish jarayonida foydalaning. Darsni o`tib bo`lganingizdan so`ng hisobot yozing. Bu topshiriq sizga dars algoritmini tuzishda: maqsad qo`yish, usul tanlash, motivatsiya va mashqlarni rejalashtirishda olgan bilimlaringizni namoyish etishda yordam beradi. Hisobotni tayyorlashda quyidagi “Darsning texnologik xaritasi”dan foydalaning.

#### DARSNING TEXNOLOGIK XARITASI

<b>Fan, sinf</b>			
<b>Dars mavzusi</b> <b>Darsning bo`limdagi tartib raqami</b>			
<b>Maqsadi / darsdan kutilayotgan natijalar</b>	<b>Ta`limiy</b>	<b>Rivojlanti ruvchi</b>	<b>Tarbiyaviy</b>
<b>Dars o`tish uchun resurslar</b>			
<b>Dars rejasi</b>			
<b>Vaqt taqsimoti ko`rsatilgan jadval</b>			
<b>DARSNING TASHKILY TUZILISHI</b>			
<b>1- BOSQICH - MOTIVLASHTIRISH</b>			
<b>Bosqich maqsadi</b>			
<b>Bosqich davomiyligi</b>			



<b>O`quvchilar faoliyatini tashkillashtirish turi</b>	
<b>Bu bosqichdagi o`qituvchining faoliyat turi va vazifalari</b>	
<b>2- BOSQICH- AXBOROT</b>	
<b>Bosqich maqsadi</b>	
<b>Bosqich davomiyligi</b>	
<b>O`quvchilar faoliyatini tashkillashtirish turi</b>	
<b>Bu bosqichdagi o`qituvchining faoliyat turi va vazifalari</b>	
<b>3- BOSQICH – INTERFAOL MASHQLAR</b>	
<b>Bosqich maqsadi</b>	
<b>Bosqich davomiyligi</b>	
<b>O`quvchilar faoliyatini tashkillashtirish turi</b>	
<b>Bu bosqichdagi o`qituvchining faoliyat turi va vazifalari</b>	
<b>4 -BOSQICH - DARSGA YAKUN YASASH</b>	
<b>Bosqich maqsadi</b>	
<b>Bosqich davomiyligi</b>	
<b>O`quvchilar faoliyatini tashkillashtirish turi</b>	
<b>Bu bosqichdagi o`qituvchining faoliyat turi va vazifalari</b>	

**Topshiriqni bajarish uchun yo`riqnoma.**

1. Hisobotning birinchi satrida o`qitilayotgan fanning nomini va sinfini yozing. Masalan "Iqtisodiy bilim asoslari" 8- sinf.

2. Keyingi satrda aniq bir dars mavzusi, kalendar –mavzuli rejadagi tartib raqamini yozing.
3. “Dars maqsadi” satrida o‘qituvchi tomonidan oldindan rejalashtirilgan natijani, ya’ni o‘quvchi va o‘qituvchi tomonidan dars yakunida erishiladigan natijani yozing. Darsning ta’limiy maqsadi- bu bilimga asoslangan natija bo‘lib, bunda dars mavzusining mazmuniga, o‘zlashtirish kerak bolgan yangi materialga diqqatni jalb etish muhim hisoblanadi. Masalan, “O‘quvchilar mavzu bo‘yicha asosiy tushunchalarni aytadilar”. Dars davomida o‘quvchilarning bilim olishi- bu darsning rivojlantiruvchi maqsadidir. Masalan, “O‘quvchilar misollarni yechishda formulalardan foydalanadilar”. Darsning tarbiyaviy maqsadi- bu qadriyatlarni o‘zlashtirishga doir natijalar va ularni baholashdir. Masalan, “O‘quvchilar iste’molchilar huquqini himoya qilish muammolariga o‘z munosabatlarini bildiradilar”.
4. “ Resurslar” satrida dars uchun zarur bo‘lgan materiallar va jixozlarni yozing. Masalan “Iqtisodiy bilim asoslari”o‘quv qo‘llanmasi har bir o‘quvchi uchun, slaydlarni namoyish qiluvchi multimediya proyektori, “Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar” mavzusi bo‘yicha 10 ta slayd, aqliy hujum uchun 1ta o‘quv plakati, test uchun kartochkalar (30 ta 4 xil variantda) va boshqalar.
5. “Dars rejasi” satrida dars maqsadiga erishish uchun bajariladigan ishlar ketma-ketligini yozing.

Masalan:

- a) “Aqliy hujum”ni o‘tkazish uchun muammoli vaziyat o‘rtaga tashlanadi. Masalan, “Ekologik muammolar-bu .....” 10 min.
- b) “Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar” mavzusida ma’ruza-10 min.
- c) Kichik guruhlarda ishlash “Iqtisodiy korsatkichlarning real miqdorini aniqlash”-15 min.
- d) Darsga yakun yasash:
  - test ishlash -5 min.
  - baholash-5 min.

6. “Darsning tashkiliy tuzilishi” qismida har bir dars bosqichlarida amalga oshiriladigan faoliyat mazmuni yoziladi. Masalan, “Motivatsiya”qismida:

- Har bir bosqich maqsadini yozing. Masalan “O‘quvchilarni mavzuni o‘rganishga qiziqtirish”;
- Birinchi bosqichni amalga oshirishga ketadigan vaqtni ko‘rsating. Esda tuting! Mavzuni e’lon qilish va motivatsiya uchun ajratiladigan vaqt 10%, mavzu bo‘yicha axborot berish uchun vaqt 10%, o‘quvchilarning mustaqil ishi uchun vaqt 60%, darsni umumlashtirish va yakunlash uchun vaqt 20% ni tashkil qilishi kerak.

-O‘quvchilar faoliyati turlarini sanang. Masalan, “O‘quvchilar aqliy hujumda “Ekologik muammolar - bu .....” mavzusi bo‘yicha ishtirok etadilar ”.O‘quvchilar ekologik muammolar, ularning kelib chiqish sabablari, muammolarni bartaraf

etish chora-tadbirlari haqidagi fikrlarini bildiradilar. Masalan, Orol dengizi muammosi, uni saqlab qolish, tabiatni asrash, atmosferadagi ozon qatlamining yemirilishi va boshqalar.

Bu bosqichda o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladigan vazifalarni sanang. Masalan, o'qituvchi "Aqliy hujum"ni tashkil etadi va quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

- a) O'qituvchi "Aqliy hujum" mavzusini qog'ozga yozadi;
  - b) O'qituvchi "Aqliy hujum"ni o'tkazish qoidasini tushuntiradi;
  - c) O'qituvchi o'quvchilarning javoblarini qog'ozga yozib boradi;
  - d) O'qituvchi yozilgan so'zlarni o'qib, xulosa chiqaradi.
  - e) O'qituvchi yangi mavzuni o'rganishda hal qilinishi kerak bo'lgan muammoni aytadi, mavzu nomini va kutilayotgan natijalarni sanab o'tadi.
7. Hisobotni to'ldirganingizdan so'ng oldinga qaytib, tushib qoldirilgan satrlar yo'qligini tekshiring.
8. Baholash mezonlari asosida bajarilgan topshiriqlar sifatini tekshirib ko'ring.

### **Mavzu bo'yicha olgan bilimingizni quyidagi topshiriqni bajarish orqali tekshiring:**

1) Muammoli o'qitishning asosiy qonuniyatlarini ko'rsating:

A) Qavs ichida berilgan so'zlardan bo'sh qoldirilgan joyga mazmunan mos keladigan so'zni tanlang va qo'ying.

O'qituvchi \_\_\_\_\_ ni tayyor holda e'lon qilmaydi, balki, o'quvchilar oldiga ularning echimini topish uchun yo'l va vositalarni qidirishga majbur qiluvchi muammoli masalalar qo'yadi. Muammoning o'zi \_\_\_\_\_ va harakat usullariga yo'l ko'rsatadi.

(yechim, bilim, harakat, masalalar, muammo)

B) Quyida berilgan gaplardagi nuqtalar o'rniga mos keladigan so'z va so'z birikmalarini qo'ying:

Muammoli o'qitish – bu o'quv mashg'ulotlarini shunday tashkil qilishki, o'qituvchi rahbarligida \_\_\_\_\_ va ularni yechishda \_\_\_\_\_ faol mustaqil harakat qilishni talab qiladi.

\_\_\_\_\_ o'qitishning barcha tur va shakllarini \_\_\_\_\_ o'quvchilarni muammolarni yechish yo'li bilan o'qitishga almashtirishni taklif qildi, bunda asosiy e'tibor ularning amaliy-o'quv shakliga qaratildi.

## **MAVZU: O'QUVCHI SHAXSIGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM**

### **O'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim ning mohiyati**

O'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim-o'quvchi shaxsiy imkoniyatlariga moslashtirilgan pedagogik muhitni hamda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi. Bu ta'lim texnologiyasida har bir o'quvchini tushunish, hurmat

qilish, unga ishonish katta ahamiyatga ega. O'quvchi-o'qituvchi hamda o'quvchi-o'quvchi hamkorligi ko'zda tutilgan ijobiy natijalarni beradi. Bu texnologiyada kommunikativ metodlardan keng foydalaniladi, ularning ayrim asosiy belgilarini ko'rib chiqamiz.

O'qituvchi tomonidan o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirishning quyidagi asosiy mezonlari mavjud:

1. Har bir o'quvchiga buyuk shaxsdek qarash, uni hurmat qilish, uni tushunish, qabul qilish, unga ishonish.
2. Ta'limning shunday muhitini yaratish kerakki, unda o'quvchi o'zini shaxs deb sezsin, unga bo'lgan e'tiborni tuysin.
3. Bolaga tazyiq o'tkazmaslik hamda uning kamchiligini bo'rttirmaslik, bilimlarni o'zlashtirmasligi, o'zini yomon tutishi sabablarini aniqlash va ularni bolaning shaxsiyatiga zarar etkazmaydigan tarzda bartaraf etish.
4. Ta'limda «muvaffaqiyat muhitini» tashkil etish, bolaga o'qishda muvaffaqiyat qozonishiga yordam berish, uning o'z kuchi va iqtidoriga ishonchini orttirish. O'quvchiga atrofdagilarning har biri o'zi kabi ekanligini anglatish, unda jamoaga aloqadorlik hissini rivojlantirish.
5. O'quvchining hurmati va ishonchini qozonish, o'ziga ham shaxs nuqtai nazaridan qarash.

### **Bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'limda rivojlantiruvchi muhitning ahamiyati**

Umumiy o'rta ta'lim muassasasining bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirish faoliyatida bolalarning kognitiv (aqliy), kommunikativ (nutq-muloqotchanlik), ijtimoiy-hissiy va jismoniy-motor rivojlanishiga sharoit yaratilishini ta'minlash juda muhimdir. Bolaning rivojlanishiga sharoit nafaqat sinf xonalarida, balki ta'lim muassasasiga kirishda, yo'laklarda, sport va dam olish maydonchalarida ham yaratilgan bo'lishi shart.

Xona va bino-bu bolaning rivojlanishi uchun muhim bo'lgan ichki omildir, binodan tashqaridagi sport, dam olish va o'yin maydonchalari, maktab va boshqa ta'lim muassasasining hududi-tashqi omillar bo'lib xizmat qiladi.

Bola shaxsiga yo'naltirilgan rivojlantiruvchi muhit ta'lim-tarbiya jarayonida bolaning yoshi, psixologik, fiziologik xususiyatlarini to'liq hisobga olgan holdagi eng qulay shart-sharoitlarni ta'minlashga xizmat qiladi. Unga quyidagi asosiy talablar qo'yiladi:

Bolaning salomatligini saqlash omillari: toza havo, toza joy, normal harorat va yorug'lik ta'minlanadigan bino va o'quv xonalari.

Maktabning bolani noxush, kutilmagan hodisalardan saqlaydigan xavfsiz joy bo'lishini ta'minlash.

Bolalarning harakat, kashf qilish va tajriba qilishlariga rag'bat ko'rsatish, ya'ni maktab hududining barcha joylarida bunga imkon bo'lsin. Masalan, sport, dam olish va o'yin maydonchasida jihozlarning etarli bo'lishi; koridorda turli o'simliklarning

o'sishini kuzatish, xonada o'quv fanlariga doir ma'lumotlar, kutubxonada turli kitoblar bo'lishi va shu kabilar.

Bolalarning o'zlari ishlagan barcha narsalar, ashyo va qo'llanmalar bola ko'ra oladigan, bo'yi etadigan darajadagi masofa va balandlikda joylashgan bo'lishi.

Bolalar o'rtasida hamkorlik va muloqotga rag'bat bildirish, ya'ni darsda kichik guruh va juft bo'lib ishlashlari, darsdan tashqari vaqtda o'yin o'ynashlariga sharoit yaratilgan bo'lishi kerak.

Bolalarda maktabga tegishlilik hissi, xavfsizlik va erkinlik hissi bo'lishi.

Turli madaniyatlar mavjudligini his qildirish.

Sinf xonasi bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydigan alohida mavzular bo'yicha qismlarga bo'lingan va shu har bir qismlar o'z mavzulari bo'yicha bola uchun kerakli va qiziqarli bo'lgan ashyo, jihozlar, o'yinchoqlar, konstruksiyalar, belgilar, raqamlar, so'zlar va h.k.bilan jihozlanganligi.

Mebel bolaning jismoniy holatiga va erkin harakatlana olishiga to'siq bo'lmaydigan holda joylashtirilgan bo'lishi, bola o'ziga tegishli mebelni bemalol harakatlantira oladigan va nogiron o'quvchilar uchun mos mebel ham bo'lishi, shuningdek, o'qituvchi uchun mebel ham qulay bo'lishi kerak.

Bolaning idrok etish qobiliyatini rivojlantiruvchi va ijod qilishga undovchi turli shakl va rangdagi materiallar bilan ta'minlash.

Bolalar ko'rishi va tanishishi uchun narsalar va ma'lumotlarni iloji boricha bitta joyga juda ko'p joylashtirmaslik, bu bolaning ularni ajratib olishiga halaqit beradi.

Bolaga erkin tanlash imkonini berish va mustaqil qaror qabul qilishga undash.

O'z tengdoshlari bilan munosabatga kirishishiga yordam berish.

Kundalik qilinadigan ishlarni biror jadval shaklida so'zlar hamda belgilar bilan tasvirlash, uni bola ko'ra oladigan va tushunadigan holatda ilib qo'yish.

Ota-onalar va maktab o'rtasida iliq munosabatlarni shakllantiruvchi muloqot o'rnatishga imkon beruvchi muhit yaratish.

### **O'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'limda dars shakli**

Shaxsga yo'naltirilgan o'quv vaziyatlari o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish usul va metodlari bilan uzviy bog'liq. Bunday o'quv mashg'ulotlarining shakllari turlicha. Ular orasidan alohida e'tibor dars jarayonida o'qituvchi-o'quvchi hamkorligining tadqiqot- izlanish metodlari hamda dialogli shakllariga qaratiladi, shuningdek, ko'rgazmali, tasviriy, reproduktiv va boshqa metodlar ham qo'llaniladi.. Bunday mashg'ulotlarning shakl va usullari bevosita shaxs faoliyatiga yondashuv konsepsiyasi va tamoyillariga mos kelib, ular bola ichki dunyosi, tafakkuri va shaxsiy hayotiy tajribasini maksimal darajada faollashtirishga xizmat qiladi. Bu o'rinda o'quv faoliyatiga rag'bat uyg'otish orqali o'quvchilarni bilim egallashga yo'naltirib, bunday shakl va usullarda tashkil etilgan ta'lim jarayoni

o`quvchilarning shaxsiy bilimi, tajribasi va hissiyotlarini rivojlantirishning asosiy manbalaridan biri bo`lib qoladi.

O`quvchi shaxsiga yo`naltirilgan ta`lim amalga oshiriladigan ayrim noan`anaviy dars shakllarini keltiramiz:

**Sho`ng`ish darsi-** ma`lum bilimlarni egallash uchun eng qulay muhitda bo`lish yoki shunday muhit yaratish orqali mavzuni faol o`rganish mashqlaridan iborat.

**Musobaqa darsi-** o`quvchilarning o`zaro musobaqalashuvini tashkil etish orqali bilimlarni mustahkamlash mashqlari.

**Konsultatsiya darsi-** dars jarayonida o`quvchilarning o`zaro hamda o`qituvchining konsultatsiyalarini tashkil etish orqali darsni o`zlashtirish mashqi.

**Ijod darsi-** o`quvchilarning mustaqil ijod etishlarini tashkil qilish darsi.

**Sinov darsi-** o`quvchilarning o`zlashtirishini turli shakllarda sinash tashkil qilinadigan dars.

**Shubha bildirish darsi-** dars mavzusi bo`yicha qoidalar, xulosalarni agar notog`ri deb hisoblansa, nimalar bo`lishi mumkinligi haqida qiziqarli bahs va tahlillar o`tkazish orqali yangi mavzuni tushuntirish darsi.

**Ijodiy hisobotlar darsi-** o`quvchilarning ayrim mavzular bo`yicha mustaqil o`rgangan bilimlari va xulosalari taqdimoti.

**Umumlashtirish darsi-** ilgari o`tilgan mavzular bo`yicha olingan bilimlarni umumlashtirish mashqlarini o`tkazish darsi.

**Ilmiy-fantastika darsi-** o`quvchilarning o`rgangan bilimlari asosida ijodiy xayol, taxminlar o`ylab topishlari mashqini o`tkazish orqali mustaqil fikrlashlarini kengaytirish darsi.

**Haqiqatni izlash darsi-** dars mavzusiga doir ayrim masalalar yuzasidan o`quvchilarning mustaqil fikrlar bildirishni tashkil etish orqali haqiqatni aniqlash va mavzuni o`zlashtirishni ta`minlash darsi.

**“Paradokslar” darsi-** o`quvchilarning faolliklari va qiziqishlarini oshirish maqsadida o`rganilayotgan mavzuni har turli “paradokslarga” bog`lab bayon qilish hamda tegishli tahlillar o`tkazish asosida to`g`ri xulosalarni aniqlash darsi.

**Seminar darsi-** yangi dars mavzusiga doir savollar bo`yicha o`quvchilarga oldindan berilgan topshiriqlarni bajarish natijalari to`g`risida ma`lumotlarni tinglash orqali sinfdagi barcha o`quvchilar darsni o`zlashtirishlarini va bilimlarini mustahkamlashni ta`minlash darsi.

**Ekskursiya darsi-** bu darslarda o`quvchilarni turli ob`yektlar: muzey, ziyoratgoh, korxonalar, ustaxona, tabiat ob`ektlari, ilmiy muassasa, kollej, litsey va boshqalarga olib borish va tanishtirish orqali ularning bilimlarini hayot bilan bog`lash va kasbga yo`naltirish ishlarini amalga oshirib borish ta`minlanadi. Juda uzoqdagi va borish qiyin bo`lgan ob`ektlarga, ular to`g`risida filmlar, turli ko`rgazmali va boshqa materiallar mavjud bo`lgan hollarda, ularni o`quvchilarga namoish etib, tushuntirish orqali videoekskursiyalar tashkil etish ham mumkin.

## **O'quvchilarning shaxsiy sifatlarini hisobga olish, ijobiy lashtirish va rivojlantirish.**

O'quvchilarning yosh xususiyatlarini ta'lim- tarbiya jarayonida hisobga olish, ularning shaxsiy sifatlarini bilish, tahlil qilishga yakka tartibda yondashishda hozirgi yosh psixologiyasi va pedagogikasining qoidalari va talablaridan kelib chiqiladi. Bunda o'quvchilarning bir- birlariga nisbatan tayyorgarliklari, qiziqishlari va fanlarni turlicha o'zlashtirishlari bilan farqlanishini hisobga olish asosiy masalalardan hisoblanadi. Shunga muvofiq ravishda o'qituvchilarning ham bir- biridan o'qitish uslubi, o'quv-tarbiya jarayonini rejalashtirish bo'yicha farqlanishini hisobga olgan holda har bir o'qituvchining ma'lum vaqt davomida optimal natijaga, ya'ni o'quvchilarning ko'zda tutilgan darajada o'zlashtirishlariga erishish yuzasidan individual yondashuvlari mavjud.

O'quvchilarning shaxsiy sifatlarini hisobga olish asosida shu sifatlarni ijobiy lashtirish va rivojlantirish maqsadlariga erishish uchun darsda o'quvchilarga mustaqil vazifalar berish, ularning mustaqil hulosalar chiqarishlarini, bir- birlaridan o'rganishlarini tashkil qilish, ularning o'qishlari uchun qulay muhit yaratishga alohida e'tibor berish talab qilinadi.

### **Ta'lim bilan tarbiyaning uzviyligini ta'minlash**

Ta'lim bilan tarbiyaning uzviyligini ta'minlash hamma zamonda ham e'tibor markazida bo'lgan masalalardan hisoblanadi. Buning uchun ta'lim-tarbiya jarayonida bolalarning nutqi, muloqot ko'nikmalari, hissiy, aqliy, jismoniy va ijtimoiy rivojlanishi uchun qulay sharoitlar yaratish, jumladan: toza joy, toza havo, normal haroratli xona va unda yetarli yoritilganlik bo'lishi, xavfsizlik, sport, dam olish, o'yin maydonchalarini yetarlicha jihozlash va shu kabilarga e'tibor berish talab qilinadi.

Shu yo'nalishdagi ayrim tajribalarni keltiramiz:

**Yorib o'tishlar texnologiyasi va V. Erxard maktabi.** Bu texnologiya menejerlarni qayta tayyorlash o'qishlaridan iborat bo'lib, uning maqsadi har bir alohida odamning ichki olamida mavjud bo'lgan (lekin kundalik bir xildagi hayot va ish bilan bo'g'ib qo'yilgan) qobiliyatlari va intilishlarini an'anaviy muammolarni yangi muammo sifatida echish uchun kundalik izlanishlarga aynan uyg'otish hisoblanadi.

Bu kurslar tinglovchining fikrlashi va xulqidagi shaxsiy stereotiplarni bartaraf qilish, o'z imkoniyatlarini va eskirgan muammolarni yangicha echish yo'llarini ko'ra olishlarini faollashtirish va o'zgartirish bo'yicha ishlab chiqilgan ko'p sonli mashg'ulotlardan iborat.

Bu kurslarning afzal jihatlari-inson omilini ishga solishga qaratilgan bo'lib, maxsus mablag'lar sarflashni talab qilmaydi; erishilgan samara so'nib qolmaydi, ya'ni olingan samara yangi shakllarda va sharoitlarda muntazam kuchayib borishi bilan bir necha marta samara olishni ta'minlaydi; alohida yirik yangiliklar yaratishga, hosil bo'lgan boshi berk holatlardan noan'anaviy chiqish yo'llarini izlashga

qaratilganligidan iborat. 48 yo'nalishdagi kurslar va seminarlar AQShning 94ta shaharlarida va boshqa mamlakatlarning 128ta shaharlarida olib borilmoqda. Bu kurslarda yiliga 57 ming kishi o'qiydi.

**O'quv materialining sxemalar va shartli belgilardan iborat modellari (tayanch signallar konspektlari) asosida ta'limni intensivlashtirish texnologiyasi** (V. F. Shatalov, Donetsk shahri).

Tayanch signallar konspektlari ko'rgazmali sxemalardan iborat bo'lib, ularda o'zlashtirilishi lozim axborot birliklari aks ettiriladi, ular orasidagi turli bog'liqliklar ko'rsatiladi hamda mavhum (abstrakt) materialni yaqqollashtiruvchi misollar, tajribalarni eslatish uchun belgilar va maqsadlarning ahamiyatligi bo'yicha klassifikatsiyasi turli shartli belgilar bilan beriladi.

Tayanch signallar konspektlari bilan ishlashda qator o'ziga xos usullar va metodik echimlar qo'llaniladi.

### **O'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'limdan amalda foydalanish masalalari**

Maktabda pedagogik jamoa yoki metod birlashmalar miqyosida o'qituvchilarning o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirishda o'quvchi shaxsini o'rganish yo'nalishlari, muloqot usullari, darsda o'quvchilarning bilim darajasi, qiziqishlari, fanlarni turlicha o'zlashtirishlaridagi farqlarni hisobga olish, qulay muhit yaratish, o'quvchilarning o'zlashtirishlariga erishish va boshqa masalalar bo'yicha nazariy, metodik va amaliy tajribalar bilan tanishish, o'rganish, ommalashtirish maqsadida amaliy mashg'ulotlarni vaqti-vaqti bilan o'tkazib borish lozim. Bu mashg'ulotni mavjud sharoit va imkoniyatlarga muvofiq bahs-munozara, trening, ishchanlik o'yini yoki seminar kabi shakllardan birortasi bo'yicha o'tkazish tavsiya qilinadi.

O'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim samaradorligini oshirish uchun quyidagi nazariyalarga asoslanish yaxshi natijalar beradi:

### **Bola intellekti rivojlanishi nazariyasi**

Bu nazariyani shveysariyalik psixolog Jan Piaje (1896-1980) ishlab chiqqan.

Bu nazariya bolalar intellekti rivojlanishini tushunish uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi. Unga ko'ra bolalar fikrlashining ko'p xususiyatlari ochib berildi. Bular: egosentrizm-boshqa odamning nuqtai-nazariga o'ta olmaslik; sinkretizm-har turli hodisalarni etarli ichki asos bo'lmagani holda o'zaro bog'lashga moyillik hosil bo'ladigan tafakkur turi; transduksiya-mantiqiy fikrlashning xususiyati bo'lib, bunda xususiydan-xususiya tomon, umumiylikni chetlagan holda, o'tish amalga oshiriladi; artiftsializm-olamni go'yo odam qo'li bilan yaratilgan, sun'iy deb idrok qilish; animizm-olamni jonli deb hisoblash, ziddiyatlarni sezmaslik.

Bola psixikasi rivojlanishining to'rtta bosqichi nazariyasini ishlab chiqdi. Bular quyidagi bosqichlar:



1. Sensomotor bosqich (tug`ilgandan 2 yoshga to`lguncha)-jismoniy his tuyg`ular: teri sezgisi, ochlik, og`riq, shovqin, yorug`lik va boshqalarga munosabat shakllanadi.

2. Faoliyatgacha bosqich (2-7 yosh)–bola o`ziga atrofdagilar ko`zi bilan qaraydi. Bunda ijobiy muhitning ahamiyati katta. Bola o`ziga ijobiy baho berishi yaxshi rivojlanishga, past baho berishi, aksincha natijaga olib keladi.

3. Aniq faoliyat bosqichi (7-11 yosh)-faktlarni qiyoslash, ob`ektiv aqliy xulosalar chiqarish, atrofdagilarning tan olishiga erishish va bolalarcha egosentrizmdan xalos bo`lish, mavjud me`yor va qoidalarni o`zlashtirish bosqichi.

4. Rasmiy faoliyat bosqichi (11-15 yosh)-mustaqil fikrlashga intilish bilan hayotiy qadriyatlarni qayta baholash, shaxsiy e`tiqodlar, qadriyatlarga munosabat, yangi odamlar bilan o`zaro munosabatlar, umidlar, kelgusi yo`lni tanlash, biror ma`naviy qahramon yoki faoliyat sohasiga e`tibor va qiziqishlarning yo`nalganligi, axborotlarni jadal, ko`pincha, aralashiga, ba`zan tanlab, to`plash bosqichi.

Shu har bir bosqichda o`sha darajadagi o`zgarmas operatsiya paydo bo`lishi hamda uning o`zgaruvchanligi rivojlanib borishidan iborat ikkitadan bosqich mavjud. Bunda agar bolaga tanish tajribalar takrorlansa, bu oson qabul qilinadi va o`zgarmas operatsiya bo`ladi. Agar bu boshqa yoki yangi tajriba bo`lsa, bola yangi sharoitga moslashish uchun muvozanatdan chiqadi va o`zining bilimi tarkibini o`zgartiradi. Shunday qilib, bola borgan sari ko`proq adekvat bilimlari tarkibini boyitib boradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, ta`lim-tarbiya jarayonida o`quvchining rivojlanish darajasiga mos va uning mantiqiy, aqliy va shaxsiy o`sishiga yordam beruvchi mashg`ulotlarni rejalashtirish zarur.

### **Eng yaqin rivojlanish sohasi nazariyasi**

Bu nazariyani rossiyalik psixolog Vigotskiy Lev Semyonovich (1896-1934) ishlab chiqqan.

Bu nazariyaga ko`ra ta`lim oldinda borishi va bolaning rivojlanishini o`ziga ergashtirib borishi lozim.

Rivojlanish faqat bola yangi ko`nikmalarni o`zlashtirganida hosil bo`ladi. Lekin uni real hayotdan ajralgan holda emas, o`zida bor bo`lgan bilimlar asosida o`zlashtirishi shart. Bu «eng yaqin rivojlanish sohasi» deb nomlandi va pedagogika hamda psixologiya faniga kirdi.

Eng yaqin rivojlanish sohasi deb L.S.Vigotskiy «yetilish jarayonidagi, ertaga yetiladigan, hozir paydo bo`layotgan holatda bo`lgan funkstiyalarni, ularni rivojlanish mevasi deb emas, rivojlanish kurtaklari, gullari, ya`ni endigina yetilib kelayotgan funkstiyalar»ni tushuntirgan edi.

Eng yaqin rivojlanish sohasi bola o`z yoshiga nisbatan qiyin masalalarni katta yoshdagi odamning yordami bo`lganda yechishi jarayonida aniqlanadi. Masalan, emaklashni o`rganib olgan chaqaloq uchun emaklash u o`zlashtirgan ko`nikma, lekin

tik turish va yurish esa, uning tomonidan endi o`rganilayotgan va katta yoshdagilar yordamida o`rganiladigan ko`nikma bo`lib, bu ko`nikma bolaning eng yaqin rivojlanish sohasida hisoblanadi.

O`quvchi bilan muloqotda uning qiziqishlaridan kelib chiqqan holda uning eng yaqin rivojlanish sohasi keng bo`lgan belgilarni topish va asta-sekin yangi bilimlar bilan to`ldirib borish orqali kutilgan natijaga erishiladi. Bunda bolalarga do`stlik va o`zaro hurmatda bo`lish asosiy shart hisoblanadi.

### **Mavzu bo'yicha olgan bilimingizni quyidagi topshiriqlarni bajarish orqali tekshiring.**

1) Nuqtalar o`rniga tushirib qoldirilgan so`z va so`z birikmalarini to`g`ri qo`yish orqali o`quvchi shaxsiga yo`naltirilgan ta`lim tamoillari haqidagi tushunchalaringizni namoyish eting
a) O`quvchi shaxsiga yo`naltirilgan ta`limning maqsadi – o`quvchilarning _____ qobiliyatlarini namoyon bo`lishi uchun sharoit yaratishdan iboratdir.
b) Umumiy o`rta ta`lim muassasalarida bola shaxsiga yo`naltirilgan ta`limni amalga oshirishning _____ bolalarning _____, _____, ijtimoiy-hissiy va jismoniy rivojlanishiga sharoit yaratilishini ta`minlashdan iboratdir.
c) O`quvchi shaxsiga yo`naltirilgan ta`limning mohiyati o`qituvchilarga nafaqat _____ muhitni yaratish, balki o`quvchilarning sub`ektiv _____, ya`ni ularning hayotiy tajribalariga doimiy murojaat qilib turishlaridan iboratdir.
d) O`quvchi shaxsiga yo`naltirilgan ta`limda ta`lim-tarbiya jarayonining _____ ta`lim oluvchining o`zi – uning motivlari, maqsadi, betakror psixologik sifatlari turadi deb hisoblaydi. Ya`ni o`quvchiga _____.
2) Quyida berilgan so`z va iboralardan faqat “ O`quvchi shaxsiga yo`naltirilgan ta`lim”ga tegishli bo`lgan tushunchalarni tanlab yozing.
Ta`lim usullari, shaxs, pedagogik texnologiya, trening, maktab ta`limi, ta`lim tizimi, rivojlanish, hamkorlik pedagogikasi, demokratizm, o`qitish metodlarining tarkibiy qismlari, tenglik, pedagog va bola munosabatidagi sherikchilik, didaktik materiallar, bilish qobiliyati, o`quv faoliyatini tashkil etish metodlari, bilishning faolligi, ta`lim vositalari, biznes o`yinlar, muammolarni hal etish.

## **II.2. Shaxsiga yo`naltirilgan ta`limda o`quvchining o`quv faoliyatini baholash va monitoringini yuritish.**

### **Baholashning asosiy usullari va tamoillari**

**Baholash va uning ahamiyati.** Ta`lim oluvchilar tomonidan o`quv materiallari o`zlashtirilganligini, ko`nikma va malakalar hosil bo`lganligini tekshirish va baholash ta`lim jarayonining zarur tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu faqat o`qitish natijalarini nazorat qilish emas, balki o`quv jarayonining turli bosqichlarida ta`lim oluvchilarning bilish faoliyatiga rahbarlik qilish hamdir.

O`quvchilarning o`zlashtirishlarini baholash O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligining 2006 yil 10 iyundagi 152- sonli buyrug`i bilan tasdiqlangan

"Umumiy o`rta ta'lim maktab o`quvchilarining ta'lim tayyorgarligi darajasini aniqlashning ko`p ballik reyting tizimi to`g`risidagi Nizom"ga muvofiq amalga oshiriladi.

Bu Nizomga ko`ra o`quvchilarning ta'lim tayyorgarligi darajasini baholashning reiting tizimi quyidagi nazorat turlari orqali amalga oshiriladi:

1. Oralik nazorat (ON)- har bir o`quv fanidan DTS bo`yicha o`quvchilar o`zlashtirishi lozim bo`lgan asosiy bilim, ko`nikma, malaka (BKM)larning elementlari soni aniq belgilangan majburiy standartli nazorat ishi (MSNI) orqali amalga oshiriladi. MSNIlar soni dastur talabidan, fanni o`qitish mazmunidan kelib chiqqan holda belgilanadi. MSNIlar Respublika Ta'lim Markazi (PTM) huzurida tashkil etilgan ijodiy guruh tomonidan tayyorlanadi.

2. Joriy nazorat (JN)-oralik nazorat (MSNIlar) orasida o`tkazilagan kundalik so`rov bo`lib, u o`quvchilar bilimida bo`shliq paydo bo`lishning oldini olish, o`quv faolligini oshirish maqsadida amalga oshiriladi. Shu bilan birga ta'limiy o`rgatuvchi xarakterga ham ega bo`ladi. O`qituvchi har bir o`quvchining MSNIlar oraligida joriy nazoratdan o`tishini ta'minlashga mas'uldir.

3. Ijodiy faollik nazorati (IFN)-reiting doirasida barcha o`quvchilar uchun majburiy bo`lmagan qo`shimcha topshiriqlar va ijodiy ishlarni ixtiyoriy bajarish orqali, ularning istak va xohishlariga ko`ra tashkil etiladi. Har chorakda bir marta o`tkaziladi.

4. Bosqichli nazorat(BN)- o`quv yili tamom bo`lgandan keyin imtihonlar yoki sinovlar shaklida amalga oshiriladi. Bosqichli nazorat uchun namunaviy va sinov imtihon materiallari RTM tomonidan tayyorlanib, joylarga yetkaziladi.

5. Yakuniy nazorat (YaN) –maktabda ta'limning to`liq kursi tugagandan so`ng Davlat attestatsiyasi shaklida amalga oshiriladi.

Yuqoridagilardan ko`rinib turibdiki, o`qituvchi tomonidan joriy (kundalik) nazorat hamda ijodiy faollik nazorati uchun materiallarni tayyorlash va o`quvchilar o`zlashtirishini baholashni amalga oshirib borish lozim.

Bunda baholashning samarali bo`lishi uning quyida qisqacha bayon qilingan ilmiy, uslubiy asoslariga muvofiq olib borilishi bilan bog`liq. Ular shaxsga yo`naltirilgan ta'limning o`ziga xos xususiyatlariga muvofiq.

**Baholash - ta'lim jarayonining ma'lum bosqichida o`quv maqsadlariga erishilganlik darajasini oldindan belgilangan mezonlar asosida o`lchash, natijalarni aniqlash va tahlil qilishdan iborat jarayondir.**

Bilimlarni tekshirish va baholashning ta'limiy ahamiyati shundan iboratki, bunda o`quv materialining o`zlashtirilganligi haqida ta'lim beruvchi ham, ta'lim oluvchi ham muayyan ma'lumotga ega bo`ladi. Baholash natijasida, ta'lim beruvchi uchun ta'lim oluvchilarning nimani bilishi va nimani tushunmayotganligi, qaysi material yaxshi o`zlashtirilganu, qaysi biri hali yetarli darajada o`zlashtirilmaganligi yoki umuman o`zlashtirilmaganligi ma'lum bo`ladi. Bu ta'lim oluvchining bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish uchun asos bo`lib hisoblanadi. Ta'lim beruvchi o`z ishining afzalliklariga va kamchiliklariga tanqidiy baho beradi. O`z ish metodlariga tuzatishlar kiritadi. Shuningdek, baholash natijalari ta'lim beruvchining o`quv dasturidagi

materiallarni ta'lim oluvchilarning bilish imkoniyatlari nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqishi va baholashi uchun ham juda muhimdir.

Baholash natijasida tushuncha va qonun - qoidalarning qaysi birlari qiyin, qaysi birlari esa oson o'zlashtirilishi aniq - ravshan bo'ladi. Bu ta'lim oluvchining ijodiy tarzda darsga tayyorgarlik ko'rishi va o'quv mashg'ulotini o'tkazishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Xuddi shuningdek, ta'lim oluvchiga ham ta'lim jarayonida qaysi o'quv materialini yaxshi, qaysinisini qoniqarli va nimani yomon o'zlashtirgani ma'lum bo'ladi. Bilimlarni tekshirmasdan ta'lim oluvchi o'z bilimlarini chuqur, har tomonlama va to'g'ri baholashga qodir emas. Ba'zan unga go'yo u o'quv materialini yaxshi egallab olganday tuyuladi, tekshirish chog'ida esa materialni yaxshi bilmasligi, yaxshi tushunmasligi ma'lum bo'lib qoladi. Baholash natijasida, ta'lim oluvchilarning o'rganilayotgan materiallarni bilish, tushunish, esda saqlab qolish, anglab olish, amalda qo'llay olish, tahlil qilish va o'z bilimlariga tanqidiy baho berish darajalari aniqlanadi. Ta'lim oluvchi o'z bilimlariga berilgan baho va tavsiflar asosida maktabdagi oqish va uydagi mustaqil vazifalarni bajarish uslubini takomillashtirish, bilimlari, malaka va ko'nikmalaridagi ijobiy tomonlarni rivojlantirish, kamchiliklarni tuzatish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish va baholashning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, ta'lim oluvchilarning o'qishga, o'z yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklariga nisbatan munosabati shakllanadi, qiyinchiliklarni yengish istagi tug'iladi. Baholash hamisha ta'lim oluvchining shaxs sifatida o'ziga nisbatan muayyan bir munosabatini hosil qiladi. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchining o'ziga nisbatan munosabatini, tuyg'ularini, uning xarakteridagi irodalilik, sinfdoshlari bilan hamkorlik, o'zaro bir - biriga yordam berish kabi sifatlarini shakllantirishga e'tibor qaratishi lozim bo'ladi.

Ba'zan baholash jarayonida ta'lim oluvchi qo'shimcha bilim, ko'nikma va malakalarga ham erishadi. Ta'lim jarayonida o'zlashtirmagan tushunchalarning mohiyatiga tushunib yetadi. Shu bois, baholashni ta'lim olish jarayonining davomi deb ham aytish mumkin.

Ta'lim oluvchi o'rtoqlarining, ota - onalarining unga, uning maktabdagi yutuqlariga va muvaffaqiyatsizliklariga nisbatan munosabatlariga hech qachon befarq bo'lib qolmaydi. Uning bilimlariga berilgan baholar ushbu munosabatni belgilaydi. Mana shuning uchun ham maqto'v, ma'qullash, tanbeh berish, yaxshi yoki yomon baho qo'yish ta'lim oluvchi shaxsining fazilatlarini, uning tengdoshlari jamoasidagi va katta yoshdagilar orasidagi mavqeini shakllantiradi. Bu ayniqsa, o'smirlar orasida katta ahamiyatta ega.

Bilimlarni nazorat qilish va baholash davlat ahamiyatiga egadir. Baholash natijalarini umumlashtirish orqali maktab jamoasining ta'lim - tarbiya sohasidagi faoliyatiga, o'quvchilarning umumiy o'zlashtirish darajasiga baho beriladi va tegishli xulosalar chiqariladi. Davlat ta'lim standartlarida davlat tomonidan qo'yilgan talablar qanchalik darajada bajarilayotganligi aniqlanadi.

Baholash natijasida nafaqat ta'lim oluvchining, balki ta'lim beruvchining kuchli va kuchsiz tomonlari, shuningdek, o'quv jarayonidagi kamchiliklar xam

aniqlanadi. Ta'lim vositalari, rejalar, ta'lim jarayonini tashkil etish sifatiga ham baho beriladi.

Ta'lim dasturining qism va bo'laklari bo'yicha muntazam baholab borish oxir - oqibat aniq va adolatli baholanish shakllanishga olib keladi. Kichik bo'limlar bo'yicha baholash, jamlash va umumlashtirish yakuniy baholashning aniq bo'lishiga yordam beradi. Ta'lim oluvchini muntazam ravishda o'z natijalari to'g'risida xabardor qilib turish, uning maqsad sari intilishi va istaklarini ro'yobga chiqarishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ta'lim berish davomidagi nazorat natijalarini o'lchab borish bilim, ko'nikma va malakalarni baholash o'quvchining o'zligini anglashi uchun bir imkoniyatdir.

**Baholash shakllari.** Baholash uning mohiyatidan kelib chiqib, ikki xil shaklda o'tkazilishi mumkin:

1. Mezonga asoslangan baholash.
2. Qiyoslashga asoslangan baholash.

***Mezonga asoslangan baholash*** - baholanuvchining ta'lim jarayonida qo'lga kiritgan natijalarini, bilim, malaka va ko'nikmalarini oldindan belgilangan o'quv maqsadlari asosida ishlab chiqilgan hamma uchun umumiy va bir xil mezonlarga ko'ra taqqoslash va o'lchashdan iborat bo'lgan baholash shaklidir. Bunday baholash shu mezonlar bilan aniq belgilab berilgan o'zlashtirish maqsadlari bo'yicha erishilgan natijalarga baho berish imkoniyatini yaratadi. Bunda natijalar bevosita va xolis baholanadi, shuningdek, o'quvchilar va sinflar bo'yicha o'zlashtirishni yaxshiroq farqlash imkonini beradi. Bu baholash shakli ikki boshichdan iborat bo'lib, birinchi bosqichda baholanuvchining erishgan natijalarini aniqlanadi, ikkinchi bosqichda esa, natijalar mezonlarga taqqoslanadi va o'lchanadi.

***Mezonga asoslangan (yoki maqsadli) baholashning:***

#### **Afzalligi**

- O'quv maqsadiga muvofiq baholanadi.
- Ta'lim oluvchining o'zlashtirish darajasi ob'ektiv baholanadi.
- Baholash o'zining aniq ko'rsatkichlariga ega bo'ladi.
- Ta'lim oluvchining olgan bahosi uning yo'l qo'ygan xatolarini yaqqol ko'rsatib beradi.
- Baholanuvchini ta'lim olishga yo'naltiradi;
- Baholanuvchilarning baholanayotgan sohadagi kuchli va kuchsiz tomonlarini xolisona aniqlab beradi, ularning o'z bilimi va malakalariga bo'lgan ishochini oshiradi;
- Hamma uchun bir xil bilim va malaka talablarini o'rnatadi;
- Ta'lim mazmunini aniqlab beradi;
- Baholanuvchilarning o'z faoliyati natijalariga bo'lgan mas'uliyatini oshiradi.

#### **Kamchiligi**

- Mezonlarni ishlab chiqish ko'p vaqt talab qiladi.
- Mezonlarning holisligi, aniqligi va haqqoniyligini ta'minlashga nisbatan talablarning ko'pligi;

***Qiyoslashga asoslangan baholash*** - nisbiy baholash shakli bo`lib, u yuqorida bayon qilingan mezonga asoslangan baholashdan so`ng, uning natijalari asosida baholanuvchilarning ta'lim jarayonida qo`lga kiritgan natijalarini o`zaro taqqoslash orqali o`lchashdan iborat.

Bu baholash shakli ham ikki boshichdan iborat bo`lib, birinchi bosqichda baholanuvchilarning erishgan natijalari aniqlanadi, ikkinchi bosqichda esa, bu natijalar o`zaro taqqoslash orqali o`lchanadi.

### **Afzalligi**

- O`qituvchi ko`p vaqt sarflamaydi.
- Turli shart - sharoitga oson moslashtirish mumkin.
- Muayyan baholanuvchilar guruhi a`zolarini ularning o`zlashtirish darajasiga qarab tabaqalashtirish imkonini beradi.
- Baholash natijasida guruh ichidan ma'lum sondagilarini ajratib olish imkonini beradi (masalan, olimpiadaning navbatdagi bosqichiga ishtirokchilarni yoki kollejga kirish imtihonlari natijasida, boshqalarga nisbatan eng yuqori ko`rsatkich ko`rsatgan 25 kishini ajratib olish mumkin).

### **Kamchiligi**

- Faqat muayyan o`quvchilar guruhi, sinf, maktabdagi mavjud natijalarga qiyosan baholash amalga oshiriladi..
- Baholar o`qituvchi tomonidan subyektiv belgilanishi mumkin.
- Bilimlarni xolisona va haqqoniy baholashning pasayishiga imkoniyat yaratadi.

## **O`quvchilarni baholash turlari**

O`quvchilarni baholashning hozirda keng tarqalgan test sinovlari, yozma ishlar, laboratoriya ishlari, mustaqil amaliy ishlar va boshqa shakllari bilan birga quyidagi ayrim shakl, usullardan foydalanish aynan o`quvchi shaxsiga yo`naltirilgan ta'lim jarayoni shakllariga mos keladi:

**Suhbat.** O`quvchi bilan suhbat dialog va hamkorlik tamoyillariga asoslangan bo`lishi kerak. Bunda o`quvchi rivojlanishining asosiy yo`nalishlari va aniq vazifalarni belgilanadi. O`qituvchi tomonidan qo`llab-quvvatlash orqali kamchiliklarni bartaraf qilish yo`l-yo`riqlarini ko`rsatib beriladi. O`qituvchi suhbatni oldindan rejalashtiradi va o`quvchi bilan suhbatni olib borganda, boshqa o`quvchilar so`zini bo`lmasligi uchun oldindan kelishib olishi zarur. Har bir suhbat natijasini sinf rahbari jurnaliga yozib borish maqsadga muvofiqdir. Suhbat natijasida o`qituvchi va o`quvchi bir necha muhim bo`lgan yo`nalishlarni belgilashlari lozim. Ushbu yo`nalishlar bo`yicha qisqa muddatli, erishib bo`ladigan maqsadlar kelishib olinadi va bu maqsadlarga erishishda yordam berishi mumkin bo`lgan mavjud imkoniyatlarni muhokama qilib, belgilab olinadi.

**Sinfdoshlar bilan baholash.** O`quvchilarni sinfdoshlar tomonidan baholash ko`nikmalariga sinfdosh o`quvchilarni o`rgatib borish lozim. Yaxshisi, baholashni kichik guruhlarda amalga oshirish maqsadga muvofiq. Bunda o`qituvchi o`quvchilarning ma'lum bir aniq bajargan ishini baholaydi. Sinfda oldindan qoidalar ishlab chiqilishi muhimdir. Ulardan asosiylari quyidagilar bo`lishi kerak: barcha

ishtirokchilar bir-birlarini eshitishi kerak, do`stlarining so`zini bo`lib bo`lmaydi, sabr-toqatli bo`lishlari, fikrni ochiq bildirish, ijobiy yutuqlardan boshlash lozim (ular 3 tadan kam bo`lmasliqi lozim), ishni yaxshilash bo`yicha o`z tavsiyalarini berish. Barcha ishtirokchilarni eshitib bolgandan so`ng, ishi muhokama qilingan o`quvchi o`z fikrini bildirishi mumkin.

**O`quvchi kundaligi.** Uni tutish uchun o`qituvchi va o`quvchi o`rtasida to`liq o`zaro tushunish va ishonch bo`lishi zarur. Kundalikda aks ettirilishi mumkin bo`lgan shaxsiy yoki nozik mavzular bo`yicha, o`qituvchi qanday qilib ta'sir etishini oldindan belgilab olishi lozim. O`quvchilar o`qituvchi kundalikdan bilgan narsalar bo`yicha bezovtalansalar, boshqa o`quvchilarga maslahat bilan murojaat qilish mumkinligini bilishlari kerak.

**O`z-o`zini baholash.** O`quvchilar qo`yilgan maqsadga erisha olishlari uchun nimalar kerakligini aniqlay bilishlari kerak, buning uchun ularni o`z-o`zini baholashga o`rgatish zarur. O`z-o`zini baholash o`qituvchi bilan dialog olib borishga asoslangan. O`quvchilarni o`z-o`zlarini baholashga tayyorlaganda o`qituvchi quyidagi savollarni ishlatishi mumkin.

- Siz ushbu topshiriqni yaxshi bajarish uchun nimalar qildingiz?
- Qaerda xatolar bor?
- Boshqa o`quvchilarga qaysi bo`limlarni tushuntirib berishingiz mumkin?
- Ushbu masalalar bo`yicha maktabdan tashqari qanday tajribangiz bor?
- Ushbu mavzu bo`yicha qanday qo`shimcha ma'lumotlarni bilasiz? va boshqalar.

**Kuzatuv** - baholashning muhim usuli bo`lib, u ta'lim olish jarayonini tahlil va nazorat qilishga qaratilgan. Quyidagilarni talab etadi:

- Faqat ishning natijasiga emas, balki o`quvchilar qanday ish olib borayotganligi bilan ham tanishib borish.
- O`quvchilarning fikrlarini eshitish va zarur xulosalar chiqarish.
- O`quvchilar erkin fikr yuritishlarini nomayon etishlari uchun muammolarni muhokama qilish.

Kuzatuv ochiq, yo`naltirilgan va tizimli bo`lishi mumkin. Ochiq kuzatuv paytida o`quvchi yoki o`quvchilar guruhi o`zlari kuzatuv ostidaligini va baholash mezonlari tanqiddan xoliligini biladilar.

Yo`naltirilgan kuzatuv bir o`quvchi yoki ma'lum o`quvchilar guruhini kuzatishga qaratilgan bo`ladi. Ma'lum bir vazifani o`quvchilar bajarayotgan paytda o`qituvchi ular qanday suhbat olib borishayotgani, vazifani bajarish uchun qanday usul va vositalarni tanlaganlari va ulardan qanday foydalanayotganlarini kuzatadi. Shunday qilib o`qituvchi ma'lum bir hatti-harakatlarda o`xshashliklarni kuzatishi mumkin. Ushbu kuzatuv natijalarini o`quvchilarning o`zlarini kuzatuvlari bilan to`ldirilish mumkin, bu esa ushbu jarayonning turli tomonlarini ko`rish imkoniyatini beradi.

- Tizimli kuzatuv paytida mezonlar oldindan belgilangan bo`lishi lozim, kuzatuv belgilangan, cheklangan vaqt davomida amalga oshiriladi.

### **Kuzatuv bir qator yutuqlarga ega:**

- Xohlangan vaqtda ishlatilishi mumkin.
- Sinfda olib borilayotgan ishga xalaqit bermaydi.
- Barcha hatti-harakat turlari haqida axborot beradi.
- Alohida vaqt ajratgan holda maxsus tadbir o`tkazishni talab qilmaydi.
- Alohida vositalar va materiallarni talab qilmaydi.

### **5.5. O`quvchining o`quv faoliyati monitoringini olib borish mezonlari va uni tashkil etish usullari.**

#### **Ta'limda monitoring nima?**

XX asrda fanda monitoring tushunchasi qo`llanila boshlandi. Boshqaruv tizimida u o`z vaqtida sifatli axborot to`plash, ilmiy asoslangan axborotni qayta ishlash, saqlash, tarqatishni o`z ichiga oladi. U ilmiy izlanish orqali yig`ilganligi uchun u yoki bu sohaning xulosalar asosida kelgusidagi rivojini ta'minlaydi. Ya'ni, sohaning hozirgi ahvoriga baho beradi, istiqbolini bashorat qilishga yordam beradi.

Pedagogikaga monitoring tushunchasi ekologiya va sotsiologiyadan kirib kelgan.

Ekologiyada monitoring - tashqi muhitni doimiy ravishda kuzatish orqali tabiatga me'yoridan ortiq tashqi ta'sir xavfining oldini olishga qaratilgan. Ya'ni tabiatga salbiy oqibat olib keluvchi tashqi omillardan ogohlantirishga xizmat qiladi.

Sotsiologiyada tashqi, ichki omillar va ularga salbiy ta'sirlarning oldini olishni o`rganadi.

Ta'limiy monitoring - pedagogik faoliyatni doimiy kuzatish, u haqida axborot to`plash, saqlash, qayta ishlash va tarqatish orqali uning ahvoli va taraqqiyotiga ta'sir etishdan iborat.

Masalan, o`quv jarayonining o`quvchi shaxsiga ta'sirini o`rganish bo'yicha doimiy kuzatuvlar orqali axborot to`plash, saqlash, qayta ishlash orqali uning ahvol, taraqqiyoti, istiqbolini belgilash.

Shaxsni o`rganib, kuzatib, nazorat etib borish orqali, uning rivojiga o`quv jarayonining ta'sirini aniqlab borish.

Ta'lim sohasidagi monitoring - pedagogik kategoriya bo`lib, mazkur sohadagi boshqaruv faoliyatini tartibga solib borishga yordam beradi.

Monitoring natijasida olingan axborotlar tahlili asosida pedagogik jarayon va uni boshqarishdagi kamchiliklarni bartaraf qilish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlarini ilmiy asoslangan holda belgilash imkoniyati hosil bo`ladi.

Axborotlar tahlili va xulosalar asosida maktab, o`qituvchi faoliyatiga tuzatish va o`zgarishlar kiritib boriladi.

#### **Ta'lim sifati monitoringining maqsadlari**

**Ta'lim sifati monitoringi uning maqsadiga mos holda quyidagi turli yo`nalishlarda olib borilishi mumkin:**

- O`quv-tarbiya jarayonini baholash.
- Erishilgan natijalarni baholash.
- Qo`yilgan maqsadlarga erishilganlik darajasini baholash.



- Tizimning holati va erishgan natijalarini baholash.
- Aniqlangan natijalarni tahlil qilish asosida tavsiya va takliflar berish.

**Bu ishlarni amalga oshirishda quyidagi asosiy omillar hisobga olinishi lozim:**

1. Kuchli ma'muriy boshqaruv.
2. Yaxshi ichki ruhiy holat.
3. Bazaviy akademik yangiliklarga yo'nalganlik.
4. O'quvchi va o'qituvchilar faoliyatining real natijalari.
5. O'quvchilar rivojlanishi nazoratini olib borish tizimini yo'lga qo'yish.

**Ta'lim jarayonining doimiy kuzatuvlarini yo'lga qo'yish orqali uning holati, natijalari, istiqbollari belgilab boriladi.**

**Buning uchun ta'lim jarayoni maqsadlarining amalga oshirilishi darajasi monitoringi quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi:**

- O'quvchilar rivojlanishlarida ilgari o'tkazilgan diagnostika natijalariga nisbatan ijobiy o'sishlar, o'zgarishlar bormi?
- O'qituvchilarning kasbiy-pedagogik faoliyatini takomillashtirishga zamin yaratilyaptimi?
- O'quv materiallarining murakkablik darajasi o'quvchilarning o'zlashtirish imkoniyatlariga mos keladimi?
- O'quvchilarning o'zlashtira olish imkoniyatlarini o'rganish.
- Alohida o'quv fanlari bo'yicha o'zlashtirish natijasi sifatini o'rganish.
- O'quvchilar bo'sh o'zlashtirishlarining tipik, didaktik sabablarini aniqlash.
- O'qituvchilar tomonidan qo'llanilayotgan didaktik yondashuvlarni tahlil etish.
- Maktab kundalik ish tartibining qulayligi darajasini tahlil qilish.
- O'qituvchilarning kasbiy, metodik mahoratiga xarakteristika berish.

Monitoringni shartli ravishda bir necha guruhga bo'lish mumkin.

**I.** Ta'lim sohasi bo'yicha tizimdagi ahvolni o'rganish natijalarini to'plash. Ta'lim boshqaruvi bo'yicha axborotlar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar, ilmiy-uslubiy materiallar va boshqalarni o'rganish.

**II.** O'quvchilar bilim, ko'nikma, malakalari o'sishini kuzatish.


Bunda sinflar bo'yicha, o'quv fanlari bo'yicha, ayrim bo'limlar, mavzular bo'yicha tahlil o'tkazish va xulosalar chiqarish amalga oshiriladi. Bu boshqaruvni takomillashtirish, o'zgartirish, rivojlantirish vazifalarini belgilashga yordam beradi. Bunday tahlillar asosan boshqarish bo'yicha qarorlar qabul qilish uchun zarur.

**III.** Kirish-chiqish modeliga asoslangan monitoring. Ta'limning ayrim bosqichlari, masalan, boshlang'ich ta'lim, o'rta sinflar, yuqori sinflar yoki umuman maktab ta'limi(1-9-sinflar) bo'yicha o'quvchilar o'zlashtirishining DTS larga muvofiqligi darajasi monitoringi o'tkaziladi.

Bunda o`quvchining maktabga birinchi bor kelgandagi holatidan ma'lum ta'lim bosqichini yoki umuman maktabni bitirgunicha DTS me'yorlarini o`zlashtirishi darajasini aniqlanadi.

**IV .** Ta'lim muassasasida qo'llanilayotgan texnologiyalar samaradorligini, ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillarni, o`qituvchining kasbiy malaka darajasi ta'sirini aniqlovchi monitoringlar.

Ta'lim sohasida monitoring vazifalari quyidagi sxemada ko`rsatilgan:



#### Monitoringning asosiy va xususiy usullari

№	Asosiy usullar	Xususiy usullsr
1	Kuzatish monitoringi	Vizualmkuzatish Masofadan(texnik vositalari orqali) kuzatish
2	Hujjatlar monitoringi	Hujjatlar asosida o`rganish
3	So`rash	Og`zaki so`rash Yozma so`rash
4	Tinglash	Bildirilayotgan fikr-mulohazalar va ma'lumotlarni, berilayotgan javoblarni diqqat va e'tibor bilan eshitish, tinglash
5	Sinash	Suhbat Sinov Imtihon Amaliy topshiriq Laborotoriya ishi
6	Yozish	Matn, Ovoz, tasvir, grafik, jadval va boshqa ma'lumotlarni turli usul va vositalar orqali yozib olish.
7	Tahlil	Pedagogik, psixologik, statistik, matematik, mantiqiy, iqtisodiy, didaktik va boshqa tahlillar

8	Baholash	Ballar yoki foizlar asosida baholash Joriy va yakuniy baholash Qiyosiy baholash
9	Texnikaviy monitoring	Monitoring vazifalarini turli texnikaviy vositalardan foydalangan holda bajarish
10	Aralash usuldagi monitoring	Monitoring vazifalarini bir nechta usullarini qoʻllagan holda bajariladi.

### **Monitoring tamoillari**


No	Tamoillar	Qisqa mazmuni.
1	Maqsadlilik	Ahvolni oʻrganish Yaxshilash choralarini aniqlash.
2	Ilmiylik	Pedagogika, psixologiya, didaktika, pedagogik texnologiyalar, xususiy metodikalar, fiziologiya, gigena, huquq va boshqa fanlar xulosalari, qoidalariga asoslanish.
3	Asoslilik	Meʼyoriy hujjatlar, yoʻriqnomalar, uslubiy tavsiyalar, qarorlar, buyruqlarga asoslanish
4	Rejalilik	Oldindan tuzilgan rejaga asoslanish, unda koʻzda tutilgan hamma ishlarni toʻliq amalga oshirish.
5	Tartiblilik	Oʻrnatilgan tartib qoidalarga, tasdiqlangan Nizom talablariga rioya qilish.
6	Izchillik	Ishlarni bajarishning belgilangan ketma-ketligiga qatʼiy rioya qilish. Barcha belgilangan bosqichlarni izchil amalga oshirish.
7	Tizimlilik	Monitoringni uni oʻtkazish boʻyicha ishlab chiqilgan tegishli tadbirlar tizimiga muvofiq amalga oshirish
8	Haqqoniylik	Birlamchi va yakuniy maʼlumotlarning haqqoniyligini uzluksiz nazorat qilish orqali taʼminlash
9	Xolislik	Monitoringni amalga oshirish jarayonining, undagi kuzatishlarning, hisobga olinayotgan maʼlumotlarning, qoʻllanilayotgan texnologiyalar, usullarning, tahlil qilishning, natijalarini aniqlashning, xulosa va tavsiyalarning xolisligini


		ta'minlash.
10	Oshkoralik	Monitoringni amalga oshirish maqsadlari, jarayoni, natijalari, xulosa va tavsiyalarning oshkoraligini ta'minlash
11	Ishonarlilik	Ko'pchilik mutaxassislariga tanish bo'lgan nazariy va amaliy ma'lumotlar asosida real baho, xulosa, tavsiyalar berish
12	Mezonlilik	Tegishli tartibda tasdiqlangan, ilmiy asoslangan va amaliy jihatdan maqsadga muvofiq mezonlarga asoslanish
13	Nisbiylik	Bir turdagi ma'lumotlarning o'zaro nisbatlarini, foizlarini hisobga olish
14	Qiyosiylik	Xulasalar chiqarishda olimgan natijalarni o'quvchilar, sinflar, o'qituvchilar, o'quv fanlari, ta'lim muassasalari, tuman (shahar)lar, viloyatlar, davlatlararo qiyoslashga asoslanish
15	Tavsiyaviylik	Samaradorlikni oshirish yuzasidan tavsiyalar berish
16	Bashoratlilik	Istiqbol rejalar uchun takliflar berish

### Monitoring shakllari

<b>O'quvchilar, o'qituvchilar va rahbariyat faoliyati monitoringi shakllari</b>		
№	Monitoring asosiy shakllari	Xususiy shakllari
1	Umumiy monitoring	Boshqaruv (menejment) faoliyati monitoringi O'quv-me'yoriy hujjatlar monitoringi Rejalarning bajarilishi Kadrlar bilan ta'minlanganlik Metodik ishlar Qayta tayyorlash va malaka oshirish O'quv-tarbiya jarayoni O'zlashtirish darajasi monitoringi va boshqalar.
2	Ayrim fan monitoringi	Fanni o'qitish uchun mavjud sharoitlar darajasi O'quv-me'yoriy hujjatlar Rejalarning bajarilishi Kadrlar bilan ta'minlanganlik Metodik ishlar

		Qayta tayyorlash va malaka oshirish O`quv-tarbiya jarayoni O`zlashtirish darajasi
3	Alohida masalalar monitoringi	Ayrim qarorlar, buyruqlar ijrosi Ish rejalarining ayrim bo`limlari ijrosi Ayrim tadbirlar monitoringi va boshqalar
4	Guruh, sinf monitoringi	Ayrim guruh, sinf yoki sinf o`quvchilari, ayrim guruh o`qituvchilar va rahbariyat faoliyati monitoringi
5	Yakka (shaxsiy) monitoring	O`quvchilar, o`qituvchilar va rahbariyat faoliyatining yakka (shaxsiy) tartibdagi monitoringi
6	Masofadan monitoring	Monitoring vazifalarini masofadan turib hujjatlar asosida yoki texnika vositalari orqali muloqot shaklida bajarish
7	Aralash monitoring	Monitoring vazifalarini bir nechta shakllarni qo`llagan holda bajarish





### **Monitoringning ta'lim muassasalarida yangi faoliyat turi sifatida shakllanishi, rivojlanishi**

Monitoring ta'lim faoliyatiga xolisona baho berishda, maktab ichki boshqaruvini takomillashtirishda maktab rahbarlari uchun qulay vositadir.

Monitoring o'qituvchi, ota-ona, o'quvchilar faoliyatidagi kamchilik va yutuqlarni xolislik bilan ko'rsatib, kelajakni bashorat etuvchi va rivojlanishga olib keluvchi o'ziga xos vositadir. Eng muhimi u o'quv jarayoniga aralashmay, halaqit bermay, tashqi va ichki muhit ta'sirlarini aniqlab beradi.

Monitoring xulosalari va tavsiyalari rahbar uchun ishni tahlil etish, tanqid qilish, takliflar kiritish va ularni amaliyotga tatbiq etish orqali o'quv-tarbiya jarayoni sifati va samaradorligini oshirib borish imkoniyatini beradi. Shu asosda boshqaruv tizimi samaradorligini va ta'lim sifatini takomillashtirilib boriladi.

Shu maqsadda maktablar, shahar, tumanlarda o'quv faolligini tahlil etish guruhlarini, markazlar tashkil etilishi yaxshi natijalar beradi.

Maktab faoliyatida monitoringni qo'llash uchun uning yo'nalishi, maqsadi, vazifalari, o'tkazish tartiblari bo'yicha o'qituvchilar, o'quvchilar, ota-onalar orasida keng tushuntirish ishlari olib borilsa, seminar, konferensiya, treninglar o'tkazilsa, uni tushunish, o'zlashtirish, faoliyatda qo'llash shuncha oson kechadi.

Ta'lim jarayoni uchun yaratilgan sharoitga, talablarga hamda ta'lim-tarbiya faoliyatiga tanqidiy qaray olish, choralar ko'rish imkoni yaratiladi. Yig'ilgan tajribalarni ommalashtirish, yoyish, tatbiq etish imkoni tug'iladi. Eng muhimi istiqboldagi ishlarni, maqsad, vazifalarni oydinlashtirishga yaqindan yordam beradi.

Monitoring maktab rahbariyati, o`qituvchilar, ota-onalar, mahalla orasida axborot-almashinuvi orqali ta'lim sifatini va ta'limda ishtirok etuvchilar mas'uliyatini oshirishga olib keladi.

Shu munosabat bilan monitoring orqali rahbar va pedagog kadrlar hamda o`quvchilar o`z ishlariga tanqidiy yondoshuv asosida ijodiy ishlash ko`nikmalarini orttirib boradilar.

Agar monitoring shaklan, mazmunan o`zlashtirib olinsa, ta'limga tatbiq etilsa, ta'limda ishtirok etuvchi har bir shaxsni ishga yangicha munosabatda bo`lishga, yondashishga, izlanishga, tashabbus ko`rsatishga odatlantiradi. Yangicha yondashuv, qarashlar - yaxshi natijalar bera boshlaydi. Ta'lim ichki boshqaruvida samarali uslublar qo`llanishiga olib keladi.

**Xulosa qilib aytganda, monitoringni joriy etish quyidagi imkoniyatlarni beradi:**

➤Maktabda ilg`or ta'lim- tarbiya usullaridan kimlar va qanday foydalanayotganligini ko`rsatadi, o`zini oqlamagan, samarasiz usublardan voz kechish imkonini beradi. O`qituvchi, o`quvchilar faoliyatini o`rganishda ilmiy asosga ega bo`lmagan, metodik, diagnostik, tasodifiy sinovlar, asosga ega bo`lmagan ishlarni qo`llashga barham beradi.

➤O`qituvchi, psixolog, direktor o`rinbosari faoliyatini to`g`ri yo`naltirishni ta'minlaydi.

➤O`quvchi faoliyatini nazorat etish, ota-onalar, jamoatchilik fikrini o`rganuvchi me`yoriy asoslarni belgilaydi.

➤Har bir maktabning ichki nazoratini amalga oshirish imkonini yaratadi.

## **TEST TOPSHIRIQLARINI TUZISH METODIKASI**

“Test” atamasi birinchi marta amerikalik psixolog J. Kettel tomonidan 1890 yilda kiritilgan. “Test” atamasi inglizcha “test” so`zidan olingan bo`lib, tekshirish, nazorat, sinov ma`nolarini bildiradi. Pedagogikada “test” atamasi o`ziga xos shaklga va mazmunga, turli qiyinlik darajasiga ega bo`lgan, o`quvchilar o`zlashtirishi darajasini xolisona baholash imkoniyatini beradigan topshiriqlar tizimidan iborat.

Test topshiriqlari – ta'lim natijalarini xolisona nazorat qilishning didaktik va texnologik vositalaridan hisoblanadi.

Test sinovlari yordamida barcha o`quvchilarning bilimini bir vaqtda tekshirish, ularni mashg`ulotlarga puxta tayyorgarlik ko`rishga, mustaqil o`qish ko`nikmalarini rivojlantirishga o`rgatish, intizomini mustahkamlash kabi imkoniyatlar yaratiladi.

### **Testlarning o`quvchilar o`zlashtirishi darajasi bo`yicha tasnifi**

*Birinchi bosqich testlar:*

#### 1. Tanib olish testlari

- “ha” yoki “yo`q, “to`g`ri” yoki “noto`g`ri” deb javob beriladigan savoldan iborat bo`ladi. Topshiriqda albatta o`quvchi bilishi yoki xususiyatlari haqida tasavvurga ega bo`lishi lozim bo`lgan ob`yekt haqida so`raladi.

#### 2. Farqlash testlari

- bir yoki bir necha to`g`ri javobga ega bo`lgan testlar.

### 3. Qiyoslash testlari

- o'rganilgan obyektlarda umumiylik yoki farqlarni topish so'raladi, bunda qiyoslanayotgan xususiyatlar yoki parametrlar topshiriq shartida berilgan bo'ladi.

### 4. Bir necha variantli test-topshiriqlar

- topshiriq sharti va barcha kerakli boshlang'ich ma'lumotlar beriladi, javoblar variantlari keltiriladi. O'quvchi berilgan topshiriq yechimini va to'g'ri javob qaysi ekanligini ko'rsatishi kerak.

#### *Ikkinchi bosqich testlari:*

#### 1. Ma'lumotni eslash testlari

test savoli beriladi, javob variantlari berilmaydi. O'quvchi javob uchun kerakli ma'lumotlarni eslash asosida to'g'ri javobni topishi kerak.

#### 2. To'ldirish testlari

-topshiriqda har xil shakldagi ma'lumot – matn, formula (tenglama), chizma yoki grafik beriladi va o'quvchi tushirib qoldirilgan ma'lumotni to'ldirishi kerak.

#### 3. Konstruktiv testlar

o'quvchi javobni topish uchun, masalan, formulani yozishi, teoremani isbotlashi yoki grafikni chizib berishi lozim.

#### *Uchinchi bosqich testlar*

#### 1. Ijodiy qobiliyat testlari

o'zlashtirilgan ko'nikma va malakalarni yangi sharoitlarda, amaliyotda ishlatish so'raladi.

## **TEST TOPSHIRIQLARINI TUZISH METODIKASI**

### **1. Yopiq test savollari**

O'quvchi javob berishi kerak bo'lgan savol yoziladi, keyin to'g'ri javobni aniq va lo'nda qilib yoziladi, keyin javobdan kalit so'z yoki formula, belgi, simvol, harflarni o'zgartirib, tushirib qoldirib noto'g'ri javob variantlari tuziladi. Topshiriq shartidan keyin to'g'ri javob va 1-3ta to'g'riga o'xshagan, lekin to'g'ri bo'lmagan javob variantlari keltiriladi.

### **2. Ochiq test savollari**

O'quvchi javob berishi kerak bo'lgan savol yoziladi, bunda o'quvchining vazifasi yetishmayotgan kalit so'z yoki ma'lumotni yozish. Savolni shunday tuzish lozimki, topilishi kerak bo'lgan kalit so'z gapning oxirida bo'lsin, aks holda savolning mazmunini anglash qiyinlashadi. Topshiriq tinnglovchi uchun topshiriqni bajarishga ko'rsatma bilan boshlanadi, masalan, "tushirib qoldirilgan so'zni toping", kabi.

### **3. Moslikni topish test savollari**

O'quv materialiga asoslangan holda, bir xil xususiyatlarga ega bo'lgan ma'lumotlardan ikkita ustun tuziladi. O'ng tarafdagi ustunda so'zlar chap tarafdagi ustundan bir nechta ortiq bo'lishi ham mumkin. Javoblarni tekshirish qulay bo'lishi uchun chap tarafdagi ustunni raqamlar bilan, o'ng tarafdagi ustunni harflar bilan belgilang. O'quvchi o'ng tarafdagi ustunda berilgan ma'lumotlarga chap ustundagi qaysi ma'lumotlar mos kelishini topishi kerak.

### **4. To'g'ri ketma-ketlikni topish test savollari**



O'quvchiiga ko'rsatma beriladi: "To'g'ri ketma-ketlikni toping". O'quvchi berilgan javob variantlarini to'g'ri ketma-ketlikda qo'yib chiqishi kerak, bu ketma-ketlik xronologik yoki boshqa mantiqiy tartib bo'lishi mumkin. Bunda o'quvchiga berilgan ko'rsatma aniq bo'lishi kerak, agar berilgan ro'yxatda mantiqiy ketma-ketlikka kirmaydigan (ortiqcha) elementlar bo'lsa, bu ham ko'rsatmada aytib o'tilishi kerak. Topshiriqqa kiritilgan elementlar soni 5tdan 12tagacha bo'lishi mumkin.

### TOPSHIRIQ

O'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan va an'anaviy darsdagi o'qituvchining Faoliyat maqsadlarini taqqoslang. Quyida keltirilgan jadvalning bo'sh qoldirilgan qismini to'ldirishda o'zingizning shaxsiy pedagogik tajribangizdan foydalaning.

An'anaviy darsda o'qituvchining maqsadi	O'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan darsda o'qituvchining maqsadi
1. Barcha bolalarni o'rnatilgan hajmdagi bilim, ko'nikma va malaka asosida o'qitish.	
2. Bolalarning ishlash shakli, o'quv topshiriqlarini aniqlaydi va topshiriqni to'g'ri bajarishlari uchun ularga namuna ko'rsatadi.	
3. O'quvchilarda o'zi taklif etgan o'quv materialini o'rganishga qiziqish uyg'otishga harakat qiladi.	
4. Yaxshi o'zlashtiruvchi yoki ortda qoluvchi o'quvchilar bilan yakka tartibda mashg'ulotlar o'tkazadi.	
5. Bola faoliyatini rejalashtiradi va yo'naltiradi.	
6. Bola faoliyati natijasini belgilash yoki yo'l qo'ygan xatosini to'g'rilash orqali baholaydi.	
7. Sinfda o'quvchilar uchun qoidalarini belgilaydi va ularni ushbu qoidalarga amal qilishini kuzatib boradi.	
8. O'quvchilar o'rtasidagi kelishmoychiliklarni hal qiladi: aybdorni jazolaydi, haqni rag'batlantiradi.	

### MAVZU BO'YICHA OLGAN BILIMINGIZNI QUYIDAGI TOPSHIRIQLARNI BAJARISH ORQALI TEKSHIRING.

1) Nuqtalar o'rniga tushirib qoldirilgan so'z va so'z birikmalarini to'g'ri qo'yish orqali o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim tamoillari haqidagi tushunchalaringizni namoyish eting
a) O'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'limning maqsadi – o'quvchilarning _____ qobiliyatlarini namoyon bo'lishi uchun sharoit yaratishdan iboratdir.
b) Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirishning _____ bolalarning _____, _____, ijtimoiy-hissiy va jismoniy rivojlanishiga sharoit yaratilishini ta'minlashdan iboratdir.

1) Nuqtalar o‘rniga tushirib qoldirilgan so‘z va so‘z birikmalarini to‘g‘ri qo‘yish orqali o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim tamoillari haqidagi tushunchalaringizni namoyish eting
c) O‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’limning mohiyati o‘qituvchilarga nafaqat _____ muhitni yaratish, balki o‘quvchilarning sub’ektiv _____, ya’ni ularning hayotiy tajribalariga doimiy murojaat qilib turishlaridan iboratdir.
d) O‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’limda ta’lim-tarbiya jarayonining _____ ta’lim oluvchining o‘zi – uning motivlari, maqsadi, betakror psixologik sifatlari turadi deb hisoblaydi. Ya’ni o‘quvchiga _____.
2) Quyida berilgan so‘z va iboralardan faqat “ O‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim”ga tegishli bo‘lgan tushunchalarni tanlab yozing.
Ta’lim usullari, shaxs, pedagogik texnologiya, trening, maktab ta’limi, ta’lim tizimi, rivojlanish, hamkorlik pedagogikasi, demokratizm, o‘qitish metodlarining tarkibiy qismlari, tenglik, pedagog va bola munosabatidagi sherikchilik, didaktik materiallar, bilish qobiliyati, o‘quv faoliyatini tashkil etish metodlari, bilishning faolligi, ta’lim vositalari, biznes o‘yinlar, muammolarni hal etish.
<b>2. Mavzuning asosiy tushunchalariga ta’rif bering.</b>
Monitoring...
Monitoring turlari...
Monitoring olib borish metodlari...

3. Nazorat ishida qo‘llash uchun test savollari namunalarini yarating. Test – sinov topshiriqlarini ishlab chiqishda test tuzish metodikasidan foydalaning.

<b>Test turi</b>	<b>Misollar</b>
Yopiq shakldagi topshiriqlar	
Ochiq shakldagi topshiriqlar	
Moslikni topishga oid topshiriqlar	
To‘g‘ri ketma-ketlikni topishga oid topshiriqlar	

### **TOPSHIRIQ: «O‘QUV FAOLIYATI MONITORINGI»**

Bu topshiriq Sizga o‘quv jarayoni monitoringi haqidagi bilimlaringizni rivojlantirishga yordam beradi. Topshiriqni bajarish uchun mustaqil bitta darsingizni oling. Bu dars siz kuzatgan “Ochiq dars”, yoki siz tomoningizdan otkazilgan dars, yoki o‘quv rejasidagi “O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma”da berilgan dars bo‘lishi mumkin. Monitoring o‘tqazish uchun “Dars tahlili jadvali”dan foydalaning.

Dars tahlili jadvali

<b>Fan, sinf:</b>		
<b>Dars mavzusi:</b>		
<b>Maqsad:</b>		
<b>O'quv faoliyati elementlari</b>	<b>Mezonlar</b>	<b>+ (bor) yoki - (yo'q)</b>
<b>1. Tarkibi</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- dars</li> <li>- seminar</li> <li>- o'rgatuvchi o'yin</li> <li>- laboratoriya ishlari</li> <li>- boshqalar (nima?)</li> </ul>	
<b>2. Tarkibiy elementlar</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- tayanch bilimni faollashtirish</li> <li>- yangi mavzuni o'rganishda motivlashtirish</li> <li>- bilimlarni amaliyotda qo'llash</li> <li>- BKM larni o'zlashtirish sifatini tekshirish</li> <li>- boshqalar (qanday?)</li> </ul>	
<b>3. O'quv faoliyatining mazmuni</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- ilmiylik</li> <li>- moslik</li> <li>- yangilik</li> <li>- bilimlarning o'z tasdig'iga egaligi</li> <li>- xulosalarning mavjudligi</li> <li>- ilmiy tushunchalar va qonuniyatlar bilan ishlash.</li> <li>- bilimga bolgan qiziqishni uyg'otadigan misollar , ma'lumotlarni darsda ishlatish</li> </ul>	
<b>4. Tarkibiy bo'laklar</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- fan ichidagi bog'liqlikni amalga oshirish</li> <li>- fanlararo bog'liqlikni amalga oshirish</li> <li>- Валеологик (salomatlik va psixologik chidamlilikka erishish usullari)</li> <li>- ekologik (atrof-muhit muhofazasi)</li> </ul>	
<b>5. O'quv jarayonining texnologik ta'minlanganligi</b>	<p><b>Zamonaviy pedagogik texnologiyadan foydalanish.</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- muammoli</li> <li>- dialogli</li> <li>- shaxsga yo'naltirilgan</li> <li>- tanqidiy fikrlash</li> <li>- boshqalar (qanday?)</li> </ul> <p><b>O'qitish usullari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- o'yin tarzida</li> <li>- interfaol</li> <li>- muammoli</li> <li>- tayanch signalli</li> <li>- tayanch konspektli</li> </ul>	

	<ul style="list-style-type: none"> <li>- dialoglar</li> <li>- boshqalar(qanday?)</li> </ul> <p><b>Bilishga bo‘lgan qiziqishni tashkil qilish usullari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- juftliklarda ishlashni o‘rgatish</li> <li>- guruhlarda ishlash</li> <li>- o‘zaro taqriz qilish</li> <li>- yakka tartibda ishlash</li> <li>- boshqalar (qanday?)</li> </ul> <p><b>Darsning ijodiy va tadqiqot xarakteri:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- laborotoriya ishi</li> <li>- amaliy ish</li> <li>- seminar</li> <li>- tadqiqot ishi</li> <li>-muammoli yechim</li> <li>- qiziqishni uyg`otodigan masalalar</li> <li>- boshqalar (qanday?)</li> </ul> <p><b>O‘quvchilarning mustaqil bilishga bo‘lgan qiziqishlarini tashkil etish:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- kitob bilan ishlash</li> <li>- hujjatlar bilan ishlash</li> <li>- didaktik materiallar bilan ishlash</li> <li>- rejalar tuzish</li> <li>-taqriz qilish</li> <li>- tayanch sxema</li> <li>- jadvallar</li> </ul> <p><b>Nazoratni tashkil qilish:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>-baholashning ob’ektivligi</li> <li>- nazoratda o‘quvchilarning ishtiroki</li> </ul>	
<b>6.O‘quv jarayonida mavzuning texnikaviy va ko‘rgazmali vositalar orqali yoritilishi</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- xaritalar</li> <li>- rasmlar</li> <li>- AKT</li> <li>-modellar</li> <li>- boshqalar(qanday?)</li> </ul>	
<b>7. O‘qituvchining o‘quvchilar bilan muomalasi</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- “Tartib intizomni ushlab”ni bilish</li> <li>- hamkorlik</li> <li>- o‘quv jarayonining sur’ati</li> <li>-o‘qituvchi shaxsining tashqi qiyofasi</li> </ul>	

**Tinglovchilar uchun yuqoridagi topshiriqlarni bajarish yo‘riqnomasi:**

1. “ Dars tahlili jadvali ”ning birinchi satriga dars o‘tilgan fan va sinfni yozing. Masalan, “Iqtisodiy bilim asoslari”. 8-sinf.

2. Jadvalning ikkinchi satriga o‘tilgan mavzuning nomini yozing. Masalan, “Inflyatsiya”.
3. Darsning uch qismdan iborat maqsadini (ta’limiy, rivojlantiruvchi, tarbiyaviy) uchinchi satrga yozing. Dars maqsadi kutilayotgan natijalar ko‘rinishida berilishi mumkin.
4. “Mezonlar” ustunining har bir satrida o‘tkazilgan mashg‘ulot mavzusiga mos mezonni tanlang va tagiga chizing.
5. «(+» yoki (-)» ustunidagi har bir satrida «(+» ishorasini yoki “ha” so‘zini o‘zingiz tanlagan mezon qarshisiga yozing. Minus ishorasini qo‘yish kerak emas.
6. Topshiriqni bajarish uchun quyidagi namunadan foydalaning:

<b>Fan,sinf: Iqtisodiy bilim asoslari</b>		
<b>Dars mavzusi: Inflyatsiya</b>		
<b>Dars maqsadi:</b> Bu dars natijasida o‘quvchilar quyidagilarni bajara oladilar: - “Inflyatsiya” tushunchasining ta’rifini tushuntira olish; - Inflyatsiyaning iqtisodiy va ijtimoiy vaziyatga ta’siri to‘g‘risidagi masalalarni yecha olish; - “Inflyatsiya oqibatlari” muammosiga o‘z munosabatini bildirish.		
<b>O‘quv faoliyati elementlari</b>	<b>Mezonlar</b>	<b>+ yoki – (bor/ yo‘q)</b>
<b>1.Tarkibi</b>	- <u>dars</u> - seminar - ta’limiy o‘yin - loybaratoriya ishi - boshqalar	+

**QUYIDA BERILGAN TUSHUNCHALARNI TA’RIFLAB BERING:**

“Qayd etish”, “Baholash”, “O‘z-o‘zini baholash”, “O‘zaro baholash”. Ushbu tushunchalarning bir-biriga qanday bog‘liqligi bor?

Qayd etish – bu

Baholash – bu

O‘z-o‘zini baholash – bu

O‘zaro baholash – bu

Kurs tinglovchisining izohi:

## BERILGAN TUSHUNCHALAR TA'RIFINI YOZING

Test topshiriqlari – bu ...

Test o'tkazishdan maqsad:

- Bir vaqtning o'zida barcha o'quvchilar bilimini tekshirish imkonini beradi;
- \_\_\_\_\_
- O'z-o'zini rivojlantirish muammolarini hal etish
- O'quvchilar bilan yakka tartibda(individual) ishlash
- \_\_\_\_\_
- \_\_\_\_\_ imkonini beradi



